

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**«TABIIYOT FANLARI» FAKULTETI
«GEOGRAFIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI» KAFEDRASI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani

E.R.Yuzlikayeva

«_____» _____ 2014 yil

**5140500-«Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» ta'lim yo'nalishi kunduzgi
bo'lim 402-guruh talabasi**

Fayziev Abdig'ani Elmurodovichning

**“Janubiy mintaqqa iqtisodiyoti va uning o'ziga xos xususiyatlari
(Qashqadaryo viloyati sanoati misolida).”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Geografiya
va uni o'qitish metodikasi»
kafedrası katta o'qituvchisi
_____ I.N.Islomov

Ilmiy maslaxatchi: «Geografiya
va uni o'qitish metodikasi»
kafedrası dot., g.f.n
_____ N.Safarova

«Himoyaga tavsiya etilsin»

**«Geografiya va uni o'qitish
metodikasi» kafedrası mudiri**

_____ g.f.n. dots. N.R.Alimqulov

«_____» _____ 2014 yil

TOSHKENT – 2014 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I.BOB. JANUBIY MINTAQANING TABIIY GEOGRAFIK SHAROITI, IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHI VA GEODEMOGRAFIK VAZIYATI.....	5
1.1. Janubiy mintaqaning tabiiy geografik sharoiti.....	5
1.2. Janubiy mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.....	19
1.3. Janubiy mintaqaning geodemografik vaziyati.....	22
II.BOB. JANUBIY MINTAQA XUDUDLARINING IQTISODIY TAVSIFI.....	26
2.1. Qashqadaryo viloyati sanoat rivojlanishining umumiy tavsifi.....	26
2.2. Qashqadaryo viloyati canoatini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	37
III.BOB. QASHQADARYO VILOYATIDA SANOAT RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI VA MAVZUNI O'QITISH METODIKASI.....	44
3.1. Respublika hududiy va tarmoq dasturlari doirasida viloyat sanoatini rivojlantirish.....	44
3.2. Qashqadaryo iqtisodiy rayonini o'qitish metodikasi.....	52
Xulosa.....	60
Foydalanilgan adabiyotlar.....	62
Иловалар.....	63

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini mintaqaviy jihatdan oqilona joylashtirish mintaqaviy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Mintaqalar o‘zlarining geografik va ishlab chiqaruvchi kuchlarining joylashuvi, tabiiy-iqtisodiy salohiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Tabiiy-iqtisodiy salohiyat mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Binobarin, mintaqalar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta‘minlash, aholi turmush darajasini oshirishning muhim shartlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: ”O‘zbekiston jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash, o‘z xalqining tinchligi va farovonligini ta‘minlashga intilayotgan boshqa davlatlar qatori hozirgi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan murakkab davr o‘rtaga qo‘yayotgan talab va savollarga to‘liq javob beradigan, aniq va ravshan, har tomonlama puxta o‘ylangan strategiya va o‘z harakat dasturiga ega bo‘lishi zarurligini hayotning o‘zi taqozo etmoqda”¹. Bu fikrlar Respublika mintaqalariga ham tegishli bo‘lib, ular manfaatlarining o‘zaro uyg‘unlashuvini ta‘minlaydigan, mavjud tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlarni hisobga oladigan iqtisodiyotni oqilona tarkibini shakllantirishga qaratilgan strategiyani ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanligini isbotlaydi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda iqtisodiyotning mintaqaviy tarkibini shakllantirish hamda ularning salohiyatidan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va davlat tomonidan tartibga solish bo‘yicha qator tadbirlar amalga oshirildi. Mamlakatimizda aksariyat mintaqalarning mavjud salohiyatlarini hisobga olgan holda, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy strategik rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilmagan. Yirik tabiiy-iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan Qashqadaryo viloyatining uzoq muddatga mo‘ljallangan strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqish ham davr talabi bo‘lib qolmoqda. Katta tabiiy-iqtisodiy salohiyatining mavjudligiga qaramasdan, viloyatda aholi turmush darajasi

¹ Karimov I.A. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li. Toshkent, “O‘zbekiston” 2007. -B.43.

ko'rsatkichlari past. Shu boisdan viloyatning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini barqaror iqtisodiy rivojlantirish dasturi bilan o'zaro majmuaviy bog'lash zarur vazifadir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Qashqadaryo viloyatida barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatni hisobga olgan holda samarali iqtisodiy rivojlanish strategiyasi va uni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqot maqsadi sanoat korxonalarini oqilona joylashtirish va rivojlantirish muammolarini mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati bilan bog'liq holda o'rganishdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan:

- sanoatni tarmoqlarini joylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari va usullarini aniqlash;
- mustaqillik yillarida O'zbekiston mintaqalari sanoatida ro'y bergan tarkibiy o'zgarishlarga baho berish;
- Qashqadaryo viloyati sanoat rivojlanishiga umumiy tavsif berish;
- mintaqqa sanoat rivojlanishiga tahsir ko'rsatuvchi omillarni ochib berish;
- respublika hududiy va tarmoq dasturlari doirasida viloyat sanoatini rivojlantirish darajasini tahlil qilish;

Tadqiqot ob'ekti etib Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalarini oqilona joylashtirish masalasi tanlandi.

Mintaqada sanoatni oqilona joylashtirish va rivojlantirishning omillari va yo'nalishlari **tadqiqot ishining predmeti** hisoblanadi.

I.BOB. JANUBIY MINTAQANING TABIIY GEOGRAFIK SHAROITI, IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHI VA GEODEMOGRAFIK VAZIYATI.

Mintaqa iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosida muhim o'rinni tabiiy sharoit va tabiiy resurslar egallaydi. Ular mintaqalarda shaharlar to'ri va tarkibining rivojlanishiga, shahar hududida arxitektura – muhandislik inshootlari, ko'p qavatli turar joy hamda sanoat ob'ektlarining qurilishiga, sanitariya-ekologik holatiga, hududiy majmualar shakllanishiga ta'sir etadi va, umuman olganda, urbanizatsiyaning iqtisodiy-geografik asosini tashkil qiladi.

1.1. Janubiy mintaqaning tabiiy geografik sharoiti.

Janubiy O'zbekiston hududini xo'jalik nuqtai nazardan rayonlashtirishda landshaft printsipi va tabiiy-xo'jalik rayonlarga asoslangan holda, quyidagi uchta mintaqaga ajratiladi: [16]

1. Tekislik mintaqasi (400 metrgacha);
2. Tog' oldi va past tog'lar mintaqasi (400-1000 metr);
3. Tog' mintaqasi (1000 metrdan yuqori).

Janubiy O'zbekistonning taxminan 57.8 foizini tog' va tog' oldi mintaqasi tashkil etadi (respublikada 21.3 foiz). Biroq, viloyatlar doirasida tog'li hududlar salmog'i turlicha bo'lib, Surxondaryo viloyatining 70 foiz (Djumaev T., 1989), Qashqadaryo viloyatining 45.2 foiz (Abdullaev S.I., Usmonov I., 1981) hududi tog' va tog' oldi mintaqasiga mansub.

Tog' mintaqasi. Qashqadaryoning tog'li qismi Hisor va Zarafshon tizmalarining g'arbiy va janubi-g'arbiy qismini o'z ichiga olib, shimolda Zarafshon, sharqda Surxondaryo, janubda Amudaryo va g'arbda Qashqadaryo botiqlari bilan o'ralgan.

Қашқадарёнинг тоғли қисми Pomir va Tyanshan tog' tizmalari orasidagi oraliq landshaft zonasida joylashgan, geologik tuzilishi jihatidan ham Turkistonning shimoliy va janubiy tog' yoylari o'rtasidagi kontakt regionidir. Shu sababli xududda Turkistonning shimoliy yoyida joylashgan Tyanshan

tog'laridagiga nisbatan paleozoy jinslari kam bo'lib, ko'proq mezozoy va kaynazoy yotqiziqlari uchraydi; paleozoy (silur, devon, karbon) ohaktoshlari, slaneo' va qumtoshlari juda kam bo'lib, faqat xududning shimoli-sharqiy va markaziy qismidagi antiklinal tog'larining zaminini ishg'ol qiladi. Lekin bu jinslar gero'in burmalanish ta'sirida marmarsimon ohaktoshlarga va metamorfiklashgan slaneo'larga aylanib ketgan. Xududning asosiy yotqiziqlar esa mezozoy qumtoshlaridan, gilli slaneo'laridan, ohaktoshlaridan, qizil gil va mergellaridan iborat bo'lib, so'nggi tektonik jarayonlar ta'sirida strukturalari o'zgargan.

Xududdagi Hisor, Chaqilkalon va Qoratepa tog'larida cho'kindi, jinslar orasida intruziv yotqiziqlar ham uchraydi. Bular granit, diorit, porfirlardan iborat bo'lib, gero'in orogenetik jarayoni bilan bog'liq holda paydo bo'lgan.

Gersin orogenetik jarayonida vujudga kelgan tog'lar keyinchalik tekislangan va ancha pasayib, tipik tog'lik xususiyatlarini yo'qotgan. Biroq pasayib, tekislanib qolgan tog'lar alhp tektonik jarayonining bu rayonga kuchli ta'sir etishi tufayli (chunki xudud Pomir tog'lariga yaqin joylashgan) yana qayta ko'tarilgan. Lekin keyinchalik turli kuchlar ta'sirida tog'lar yemirilib, hozirgi holatiga kelib qolgan.

Xudud orografiyasining o'ziga xos xususiyati shundaki, butun tog'lar Hisor va Zarafshon tizimlariga kiradi va g'arbga hamda janubi-g'arbga tomon pasaya borib, qator tog'larga aylanib ketadi. Bu tog' dahalari bir-birlaridan chuqur daryo vodiylari orqali ajralib turadi. Xududning mutloq balandligi 500—4500 m, ayrim cho'qqilari esa 4600 m ga yetadi. Bu esa xududning alp turidagi baland tog'li o'lka ekanligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, xududning yer yuzasi juda past-baland bo'lib, tog'larning o'q qismi daryo vodiylaridan 1500—3000 m tik ko'tarilib turadi va cho'qqilari qoyali, qirralidir.

Tog'li xududi relefining bunchalik murakkab bo'lishiga uning geologik tuzilishi ham juda katta ta'sir ko'rsatgan: hududda slaneo' va ohaktoshli jinslarning ko'p bo'lishi, tog' yonbag'irlarining qoyali, daryo vodiylarining esa tog', chuqur va tik bo'lishiga olib kelgan. Aksincha, xududning g'ovak, bo'sh cho'kindi jinslardan iborat bo'lgan adir qismining relefi uncha murakkab emas. Bu kismida

daryolar denudao'iya jarayonida o'zangini emas, balki yon tomonini ham yuvib, chuqur bo'lmagan keng vodiylar hosil qilgan.

Zarafshon tizmasi xududning shimolida bo'lib, uning Egribugri dovonidan g'arbda bo'lgan qismi shu xududga qaraydi. Zarafshon tizmasining bu qismi ancha past bo'lib, eng baland yerlari 2500 m ga yetadi.

Zarafshon tizmasi sharqdan g'arbga qarab bir necha bo'laklarga bo'linib, Chaqilkalon, Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog'lari nomi bilan ataladi.

Zarafshon tizmasining Mariyondaryo vodiysidan g'arbdagi qismi Chaqilkalon tog'i deb ataladi, u deyarli kenglik bo'ylab cho'zilgan. Bu tog'ning sharqiy qismi baland (Zebon cho'qqisi 2336 m). Chaqilkalon tog'i asimmetrik tuzilgan, shimoliy yonbag'ri qisqa va tikdir. Bu yerda tog' Zarafshon vodiysidan birdaniga ko'tarilib ketadi, janubda esa aksincha, Farob-Mariyon va Qashqadaryo vodiylariga qiya bo'lib, asta-sekin pasayib boradi. Bu tog' devon ohaktoshlaridan tuzilganligi sababli voronkasimon, konussimon — karot shakllari ko'p, ba'zi karst konuslarining diametri 80 m, chuqurligi esa 35—40 m keladi.

Chaqilkalon tog'ining g'arbiy qismidagi Qoratepada bir necha rorlar mavjud. So'nggi paytda Chaqilkalon tog'ining rarbidagi Qirqtog' platosida Turkistondagi eng chuqur Qili g'ori (chuqurligi 1082 m) topildi.

Chaqilkalon tog'i Taxtaqoracha (1630 m) dovonida tugaydi, shu yerdan g'arbga qarab Qoratepa tog'i davom etadi. Bu tog' intruziv jinslardan tuzilgan bo'lib, eng baland joyi Kamqo'ton cho'qqisi bo'lib, 2195 m. ga yetadi. Bu tog' shimolga qarab asta-sekin pasaya boradi va baland tekisliklarga aylanadi. Lekin tog'ning janub tomoni tikdir. Qoratepa tog'i G'arbga qarab davom etadi va Kattaqo'rg'on shahri janubida yana balandlashib, Zirabuloq tog'ini xosil qiladi. Zirabuloq tog'i g'arbga qarab taxminan 100 km cho'zilgan (nisbiy balandligi 500—600 m). Eng baland joyi sharqiy qismidagi Zindontog' cho'qqisidir (1116 m). Zirabuloq tog'i g'arbda Qarnob yo'lagi orqali Ziyovuddin tog'idan ajralib turadi. Bu tog' Zarafshon tizimining eng g'arbiy qismi bo'lib, nisbiy balandligi 300 m, mutlaq balandligi esa 900 m. ga yetadi. Ziyovuddin tog'ining eng baland yeri Navoiy shahridan sharqdagi Dartko'l cho'qqisidir (914 m).

Ziyovuddin va Zirabuloq tog'lari denudao'iya jarayonida pasayib, yassilanib qolgan, ularda quruq soylar ko'p. Har tog' ham asta-sekin shimolda o'rta Zarafshon va janubda Qashqadaryo xududlariga tutashib ketadi.

Chaqilkalon tog'ining janubida Qashqadaryo, Jinnidaryo va Oqsuv daryolarini bir-biridan ajratib turadigan qator tog'lar bor, ular Zarafshon tizmasini Hisor tizmasi bilan qo'shib turadi. Bu tog'lar ichida Jinnidaryo bilan Oqsuv daryosi orasidagi Sumsar va Shertog' toglari ancha baland bo'lib, 2500 m dan ortiqdir. Hisor xududidagi asosiy tizma hisoblanadi. Lekin uning faqat Mura (3799 m) dovonidan g'arbda bo'lgan qismigina O'zbekiston xududidadir. Hisor tizmasi taxminan 68° sharqiy uzunlikda Kishtut daryosining (To'polon daryosining iredori) yuqori oqimi orhali 2 qismga ajraladi;

1) janubi-g'arbga qarab yo'nalgan va Kishtut hamda Qorptog daryolari orasida suvayirg'ich hisoblanadigan Machitli tog'i. Bu tog'ning faqat g'arbiy qismigina shu xudud doirasidadir (eng baland yeri 3476 m);

2) shimoli-g'arbga tomon chegara bo'ylab yo'nalgan qismi — Hazrati Sulton tog'i Hisor tizmasining bevosita davomidir. Hazrati Sulton tog'y Oqsuv daryo vodiysishshg yuqori oqimigacha davom etib, so'ngra Sumsar va Shertog' tog'lari orqali Zarafshon tizmasi bilan tutashadi hamda bu yerda undan janubi-g'arbga qarab qatog' tarmoqlar ajralib chiqadi.

Hazrati Sulton tog'i ancha baland bo'lib, 4000 m dan ortiq, qoyali, qirrali, muzliklar va doimiy qorliklar bilan, o'ralgan cho'qqilari bor. Hazrati Sulton tog'ining markaziy qismi (To'polon daryosining yuqori oqimi bilan Mura dovonining orasidagi qismi) juda baland; bu yerda Xarbitog—4395 m, Hazarxon—4496 m, Xojisharq — 4424 m, Hoji Qarshavar—4304 m, Zarrak—4299 m, G'ova —4145 m va boshqa cho'kqilar bor. Butun xududning hamda O'zbekistonning eng baland nuqtasi Hazrati Sulton nomli cho'qqidir (4643 m), u Hisor tizmasining o'sha Hazrati Sulton tog'idan boshlanadigan Dioxondaryo (To'polon daryosining chap irmog'i) bilan Bodomiston (Qoratog' daryosining o'ng irmog'i) daryolarining yuqori oqimidadir.

Umuman, Hisor tizmasining Hazrati Sulton tog'i alhp turli relef shakllari bilan xududning boshqa qismlaridan farq qiladi, bu yerda bir necha kichik-kichik muzliklar bor.

Hisor tizmasidan (Hazrati Sulton tog'ida) Oqsuv daryo vodiysining yuqori oqimida janubi-g'arbga qarab birbiriga parallel qator tarmoqlar ajralib chiqadi. Bu tarmoqlar Qashqadaryo bilan Surxondaryo orasida suvayirg'ich hisoblanadi, ulardan eng muhimlari Chaqchar, Boysun, Osmontarosh, Beshnov tog'laridir. Bular ichida eng kattasi Chaqchar tizmasidir (Xuroson cho'qqisi— 3744 m).

Chaqchar tog'i janubga davom etib, undan janubi-g'arbga Osmontarosh (3700 m) tog'i ajralib chiqadi. Bu tog' Oqsuv va Tanxoz daryolari orasidadir. Osmontarosh bilan Chaqchar tutashgan yerda (G'ova dovoni atrofida) qator muzliklar bor. Bular ichida eng kattalari Severtsev va Botirboy muzliklaridir. Severtsev muzligining bo'yi 2,3 km, eng 550 m, maydoni 1,38 km², Botirboy muzligining bo'yi esa 2,2 km, maydoni 1,3 km².

Osmontarosh tog'ining janubida Beshnov tog'i bo'lib, ularni Tanxoz daryosi ajratib turadi. Beshnov shimoli-sharqqa davom etadi va Chaqchar tog'iga borib tutashadi.

Chaqchar tog'idan janubi-g'arbda Eshakmaydon, Toydala, Xontaxta, Maydanon kabi tarmoqlar ajralib chiqadi. Bu toglar bir-biridan Qizildara, Guldara (Qashqadaryoning chap irmog'i) daryolari orqali ajralib turadi.

Chaqchar tog'ining shaoqida unga parallel holda yo'nalgan Boysun tog'i joylashgan. Bu tizma Hisor tog' tizimiking eng uzun tarmori bo'lib, u shimoli-sharqda Qo'shtang (3273 m), o'rta qismida Qetmonchopti (3168 m) va janubida esa Suvsiztog' tog'lari deb ataladi.

Boysun tog'ining janubida Kuhitang tog'i bor. Bu tizma janubi-g'arbga 50 km cho'zilgan va balandligi 3137 m ga etadi, bu yerda karet jarayoni rivojlangan. Ko'hitang tog'ida uzunligi 4 km ga yetadigan g'orlar bor.

Boysun tog'ining sharqida unga parallel holda Surxontok joylashgan, u kichkina, lekin ancha baland (3722 m) tizmadir. Bu tog'ning janubida shimoli-sharqdan janubi-g'arbga yo'nalgan Qlif-Sherobod past tog'lari o'rnashgan. Klif-

Sherobod past tog'larining o'rtacha balandligi 900—1000 m, eng baland yeri esa 1,126 m. Bu tog'lar Sherobod daryo vodiysida tugab, so'ngra shimoli-sharqqa qarab Sherobod-Sariqamish past tog'lari boshlanib ketadi. Past tog'larning eng baland yeri 1216 m ga yetadi va janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa qarab Gazlafon, Beshqiz, Qorabunadir, Takasakradi, yetimkalas tog'lari deb ataladi.

Tog'li xududining iqlimi o'ziga xos bo'lib, ham pastdan yuqoriga, ham shimoldan janubga o'zgarib boradi. Shu sababli xudud shimolining quyi qismida o'rtacha yillik harorat 12° — 13°S bo'lsa, janubining quyi qismida 14° — 15°S . Lekin tog'larning eng baland qismlarida o'rtacha yillik harorat past bo'lib, 0° — 6°S atrofida bo'ladi.

Yoz xududning quyi qismida issiq va quruq bo'lib, iyulning o'rtacha harorati 24° — 28°S , tog'larning baland qismida esa 12° — 17°S ga tushib qoladi. Eng yuqori harorat quyi qismida 40° — 45°S , baland qismida 25° — 30°S atrofida bo'ladi. Xududda qish uning kuyi qismida nisbatan iliq bo'lsa, yuqori qismida sovuq va davomli bo'lib, yanvarning o'rtacha harorati pastki qismida $0,5^{\circ}$ — 2° , yuqori qismida esa -6° — 10°S . Eng past harorat xududning pastki qismida -25° — 26°S , yuqori qismida -30° — 35°S . Xududda sovuqsiz davr uning quyi qismida 200—220 kun bo'lsa, yuqori qismida 100—110 kunga tushib qoladi.

Tog'li xududida yog'in relefning ta'sirida hudud bo'yicha bir xil taqsimlangan zmas.

Tog'larning quyi qismlarida, berk vodiylarda yillik yog'in miqdori kam (200—400 mm) bo'lsa, balandroq qismlarida va ayniqsa g'arbiy havo oqimlariga qaragan yonbag'irlarda yog'in ko'p (400—1000 mm) bo'ladi.

Yillik yog'inning ancha qismi (45—50%) bahorda, (34—40%) qishda, oz ismi (8—10%) kuzda va (2—3%) yozda yog'adi. Qor qoplaminin qalinligi 80—90 sm ga yetadi.

Tog' etaklarida va vodiylarda qor qoplami yupka, uzok turmaydi, tog' tepalarida esa qalin, baland kismilarida ba'zan yozgacha erimay yotadi.

Tog'li xududida yog'in ko'proq yoqqanligidan Turkiston-Nurota xududiga nisbatan daryolari ko'p va nisbatan sersuvdir. Xududdagi daryolar asosan

Qashqadaryo, Surxondaryo va Sherobod havzalariga kiradi. Xududdan boshlanuvchi Jinnidaryo, Oksuv, Tanxoz, Yakkabog' va G'uzordaryolar Qashqadaryo xavzasiga kiradi. Jinnidaryo Qashqadaryoning birinchi ancha sersuv irmog'i hisoblanib, Hisor tizmasining Oqota va Sherdog' cho'qqilari orasidagi buloq va jilg'alardan boshlanib, uzunligi 57 km, suv yig'adigan havzasi 367 km². Bu daryo qor va muz erishidan to'yinib, uning suvi martiyun oylarida ko'payadi. Daryoning o'rtacha yillik suv sarfi Qalandar qishlog'i yonida sekundiga 1,50 m³. Ushani 68,3% mart-iyun oylariga, 11,4% iyul-sentyabrga, 20,3% esa oktyabr-fevral oylariga to'g'ri keladi.

Oqsuv daryosining uzunligi 115 km, suv yig'adigan havzasining maydoni 1050 km² bo'lib, Hisor tizmasidagi Botirboy va Severtsev muzliklaridan boshlanuvchi Botirboy va Xonakasuv irmoqlarining qo'shilishidan vujudga keladi. Hisorak qishloqigacha tor o'zanda tez oqadi, so'ngra vodiysi kengayib, qayirlar xosilqiladi. Oqsuvga chap tomondan Gilyandaryo, Qizilyamchak, Tomshush Sutshar o'ng tomondan Qorasuv kabi irmoqlarni qo'shish bo'ladi. Oqsuv qormuzlarni erishidan to'yinadi. Uning o'rtacha yillik suv sarfi Hazarinov yonida sekundiga 12,3 m³ bo'lib, o'shani 48,3% mart-iyunda, 36,1% ni iyul-sentyabrda, 15,6 ni esa oktyabr-fevralda oqizadi.

Tanxozdaryo — uzunligi 104 km, suv yig'adigai maydoni 459 km². Daryo Hisor tog'idagi G'oziko'ldan boshlanib, Sartug'ay irmog'igacha bo'lgan yuqori oqimi Qaranqul nomi bilan yuritiladi. Tanxozdaryo yukori qismida tog' o'zanda shiddat bilan oqadi. Uning eng muhim irmoklari Sarito'qay, Sho'rsoy, Qizilsuv hisoblanadi. Tanxozdaryo xam korlarning erishidan va yer osti suvlaridan to'yinib, o'rtacha suv sarfi sekundiga 4,23 m³ ni tashkil etib, o'shani 63,6% mart-iyun oylarida, 25,4% iyul-sentyabrda, 11% esa oktyabr-fevralda oqizadi.

Yakkabordaryo. Uzunligi 108 km, xavzasining maydoni 1060 km². Daryo Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlaridan boshlanib. Tanxoz daryosiga kelib qo'shiladi. Uning asosiy chap irmoklari Shilxazor, Katta Xurson, Qalon, Turnabuloq hisoblanadi. Yakkabordaryo qorlarning erishidan to'yinib, o'rtacha

yillik suv sarfi sekundiga 6,73 m³, o'shani 61,6% mart-iyunda, 27,8% iyul-sentyabrda, 10,6% oktyabr-fevralda oqizadi.

G'uzordaryo. Uzunligi 86 km, havzasining maydoni 3220 km². G'uzordaryo Chaqchar tog'idzn boshlanuvchi Kattauru va Kichikuru, Ulmas tog'idan boshlanuvchi irmoqlarni qo'shshshshidan vujudga keladi. Daryo qorlarning erishidan va yer osti suvlaridan to'yinib, yillik suv sarfi sekundiga 5,90 m³, o'shani 63,9% mart-iyunda, 14,7% iyul-sentyabrda, 21,4% oktyabr-fevralda oqadi.


Surxondaryo havzasiga kiradigan asosiy daryolar To'polon, Qoratog', Sangardak, Xo'jaipok daryolaridir.

To'polondaryo Hisor togidagi Hazrati Sulton (4643 m) cho'kqisi yakindan Qorasuv nomi bilan boshlanib, so'ngra Tamshush nomini oladi va Gova irmog'ini qo'shib olgach To'polondaryo deb ataladi. So'ngra unga Shatrut va Dashnobod irmoqlari qo'shiladi. To'polondaryoning uzunligi 112 km, havzasining maydoni 2200 km². Daryo qormuz suvidan to'yinib, o'rtacha yillik suv sarfi sekundiga 51,9 m³. Ushani 60,8% mart-iyunda, 28,6 iyul-sentyabrda, 10,6% oktyabr-fevralda oqadi.

Qoratog'daryo — Hisor tizmasining janubiy yonbag'ridan boshlanib, uzunligi 95 km, havzasining maydoni 682 km². Daryo qor va muzlarning erishidan to'yinib, yillik o'rtacha suv sarfi sekundiga 56,5 m³. O'shani 56,5% mart-iyunda, 32,2% iyul-sentyabrda, 11,3% ni oktyabr-fevralda o'tkazadi. Daryoning asosiy irmoqlari Sherkent va Oqjarsoy hisoblanadi.

Sangardak Hisor tog'idan Tegiqonor nomi bilan boshlanib, Qizilsoy irmog'ini ko'shib olgach Qizilsuv, so'ngra Sangardak norliii oladi. Daryoning uzunligi 114 km, havzasining maydoni 948 km² bo'lib, qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadi, o'rtacha yillik suv sarfi sekundiga 17,1 m³. O'shani 68,0% mart-iyunda, 19,2% tog'lardan oladi[8].

1-rasm Qashqadaryo viloyati tabiiy xaritasi



Qashqadaryoning tekislik mintaqasi. Xudud O'zbekiston hududining janubiy qismidagi Qarshi botig'ini o'z ichiga oladi. U shimolda Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog'lari bilan, sharqda Hisor tizmasining janubi-g'arbiy qismining quyi etaklari bilan o'ralgan. Qashqadaryo xududining janubidan O'zbekistonning Turkmaniston bilan bo'lgan davlat chegarasi o'tadi. G'arbda esa xudud Quyi Zarafshon xududi bilan chegaradosh. Jarqoq va Dengizko'l platolari bu ikkala xududni bir-biridan ajratib turadi.

Xudud o'zining vujudga kelishi va yer yuzasining tuzilishi jihatidan shimoli-sharqdagi Tog'li xududidan farq qiladi. Chunki Tog'li xududi paleozoy va mezozoy cho'kindi va otqindi yotqiziqlari bilan qoplangan, gero'in va alhp oro genetik jarayoni ta'sirida burmalangan. Qashkadaryo xududi esa qalin allyuvial, prolyuvial va eolakkumulyativ jinslaridan iborat bo'lib, ularning tagida tub jinslar yotadi. Allyuvial prolyuvial jinslar kompleksi o'zlarining yoshiga ko'ra o'rta va yuqori antropogen davriga xosdir. Xududning o'rta qismidagi qirlar va qoldiq tog'lar esa bo'r, paleogen va neogen davr jinslaridan tashkil topgan.

Qashqadaryo tekislik xududining yer yuzasi o'rqir tekislikdan iborat bo'lib, shimoldan, sharqdan va janubi-sharqdan g'arbga tomon cho'zilgandir, janubi-g'arbga tomon esa pasayib boradi. Biroq bu xudud hududida onda-sonda (pastroq) qoldiq tog'lar va platolar ham uchrab turadi. Qarshi shahrining shimolida Qo'ng'irtog' (517 m), Koson shahrining janubida kosontog', Maymoqtog' (500 m), Sandiqli qumligining sharqida Olovuddintog' (485 m), xududning g'arbida Jarqoq platosi (397 m) va Dengizko'l (380 m) platosi, Qarshi, Nishon, Qarnob, Malik cho'llari va Sandiqli qum cho'li kabi qator cho'llar bor.

Xududning markaziy qismida allyuvial jinslar bilan qoplangan Qarshi vohasi joylashgan.

Qarshi vohasining g'arbi Sandiqli qumligi bilan tutashib ketadi. Sandiqli qum cho'lining yuzasi qatorqator qum tepalari va marzalardan iborat. Bundan tashqari, bu yerda ko'chma .qumlar va taqirlar ham uchraydi.

Xududning g'arbida juda katta Qarshi cho'li bor; uning yer yuzasi Qarshi vohasiga nisbatan past (300—250 m) bo'lsada, lekin unda o'nqircho'nqir yerlar

ko'p. Past yerlarda Do'latlisho'r, Sho'rsoy, Oqjayronsoy, So'xtasho'r, Chorboysho'r, Yommoshisho'r va boshqa sho'rxoklar, taqirlar hosil bo'lgan.

Qarshi cho'li shimol va shimoli-g'arbga davom etib, Qarnob va Malik cho'llariga qo'shiladi.

Qarnob cho'lining mutloq balandligi 250—300 m bo'lib, shimolda Ziyovuddin tog'iga tutashadi, g'arb tomonga pasayib, Toshloqqum hamda Uchqum qumliklariga aylanadi. Qarnob cho'li toshloq, taqir va sho'rxok yerlardan iboratdir. Uning janubi Malik cho'lga tutashib ketadi. Malik cho'li g'arbdan sharqqa 65 km cho'zilgan.

Qarshi cho'lining janubida Nishon cho'li joylashib, yer usti tuznlishi jihatidan tekislikdan va ular orasida platosimon balandliklardan iborat. O'sha balandliklarning eng muhimlari Qoraqir (mutloq balandligi 500 m), Do'ltalitog' (514 m), Olovuddintog' (485 m) va boshqalar. Bular ichida Qoraqir suv eroziyasi natijasida juda ham parchalanib, jarliklar vujudga kelgan. Shu sababli yerli xalq Qoraqirning o'sha jarlar juda ko'p bo'lgan sharqiy qismini «Sakson dara» deb atashadi.

Qashqadaryo tekislik xududining iqlimi kontinental iqlim bo'lib, yozi issiq, quruq va uzoq davom etadi, qishi esa uncha sovuq emas. Xududning qishi iliq (yanvarning o'rtacha harorati $0^{\circ}\text{Q}2^{\circ}\text{S}$). bo'lib, o'simliklar deyarli yil bo'yi o'sa beradi. Lekin ba'zan Arktika havo maosasi kuchayib ketganda tog'lardan oshib o'tib, xudud haroratini pasaytirib yuboradi. Natijada ayrim vaqtlarda eng past harorat -22° — -29°S ga tushib ketadi. Yoz esa issiq (iyulning o'rtacha harorati $\text{Q}28^{\circ}$ $\text{Q}29^{\circ}\text{S}$) va uzoq bo'lib, eng yuqori harorat 43° — 47°S ga chiqadi. Xududda 0—24 kun davomida harorat $0-9^{\circ}\text{S}$ dan past bo'lib, 284—298 kun davomida harorat $\text{Q}5$ dan yuqori bo'ladi. Qashqadaryo xududida baxorgi oxirgi sovuq tushishning o'rtacha muddati 16—25 martga, kuzgi birinchi sovuq tushishning o'rtacha muddati esa 21 oktyabr—14 noyabrlar orasiga to'g'ri keladi, binobarin, sovuqsiz kunlarning o'rtacha muddati 209—242 kun atrofida bo'lib, o'sha davrdagi foydali haroratning yig'indisi 2564° — 2864°S ga, vegetao'iya davridagi haroratning yig'indisi esa 4900° — 5300°S ga yetadi.

Bunday iqlim sharoiti ingichka tolali paxta va boshqa issiqsevar o'simliklarni yetishtirishga to'la imkon beradi. Lekin yozda xudud hududiga garmisel esib, qishloq xo'jalik ekinlariga katta zarar yetkazadi. So'nggi yillarda Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi tufayli, ihota daraxtzorlarini ko'payishi sababli garmisel kuchi zaiflashmoqda.

Xududda yog'in miqdori uning relefiga ko'ra g'arbdan sharqqa tomon o'zgaradi. Eng kam yog'in—180 mm, uning g'arbiy, tekislik qismiga to'g'ri keladi va sharqda, tog' oldi qiya tekisliklarida 550 mm yog'in yog'adi. yog'inning asosiy qismi kuz-qish-bahor fasllarida yog'adi. Yillik yog'in miqdorining 45—50 foizi bahorga, 37—40 foizi qishga, 10—15 foizi kuzga to'g'ri keladi. Yoz xududda qurg'oqchil bo'lib, yillik yog'in miqdorining faqat 0—3% i tushadi. Yog'inning bir qismi qattiq holda tushib, bir yilda o'rtacha 2 kundan 17 kungacha qor erimay turadi va qorning qalinligi yanvar-fevral oylarida o'rtacha 5—7 sm ga yetishi mumkin.

Qashqadaryoning tekislik xududida qishda eng ko'p shamol sharqiy tomondan, yozda esa shimoli-g'arbiy, g'arbiy tomondan esadi. Shamolning yillik o'rtacha tezligi sekundiga 1,9—3,0 m atrofida bo'ladi. Lekin yozda shimoli-g'arbdan va g'arbdan quruq shamollar esganda tezligi o'rtacha sekundiga 3,7 dan 4,2 m ga yetadi.

Xududda iqlim quruq va yer yuzasi tekis bo'lib, oqar suvlar kam. Qashqadaryodan tashqari doimiy oquvchi daryo yo'q. Xududning shimoliy qismidagi tog'lardan boshlanadigan soylar esa Qashqadaryoga yetmasdan yo'l-yo'lakay butunlay sug'orishga sarf bo'lib ketadi yoki yozda butunlay qurib qoladi.

Qashqadaryo (322 km) Hisor tizmasining tog'tosh dovoni yaqig nidan, 3000 m balandlikdan boshlanib, Muborak shahridan 10 km shimoli-sharqda qumlar orasida g'oyib bo'lib ketadi.

Qashqadaryoning o'ziga xos xususiyati shundaki, u toglardan suv yig'ib, xududga kelganda butunlay sug'orishga sarf bo'ladi. Qashqadaryo tekislikka chiqqach, Jindaryo, Oqsuv, Tanxoz, Yakkabog'daryo, G'uzordaryo kabi irmoqlarni qo'shib oladi. U tog'li qismida, tog' vodiya tez oqsa, tekislik qismida

esa daryo vodiysi kengayib, sekin oqadi va quyi qismida bir necha tarmoqlarga bo'linadi. Bularning eng muhimlari Maymandaryo, Qamashidaryodir.

Qashqadaryo tekislikka chiqqach sekundiga 50 m³ yoki yiliga 1575 mln. m³, miqdorda oqim hosil qiladi. Lekin bu suv xudud hududida sug'orishga butunlay sarflanadi.

Qashqadaryo xududining shimoliy qismida joylashgan Qoratepadan 20 ga yaqin soylar boshlanadi. Bahorda bu soylarda suv ko'payib toshadi. Yozda bu soy suvlari kamayadi hamda sug'orishga sarflanadi. Bu soylarning eng muhimlari Sho'rabsoy, Makridsoy, Oyoqchisoy, Qalqamasoy va boshqalar.

Qashqadaryo tog'lardagi qorlardan va kichik-kichik muzliklardan, baxorgi yog'inlardan to'yinadi, shu sababli uning suvi bahorda ko'payib, yozda va qishda kamayib qoladi. Iilliq suv miqdorining 64,0 foizi martiyun oylariga, 11,7 foizi iyulsentyabr oylariga to'g'ri keladi. Shu sababli, havzadagi bahorgi toshqin suvlarni to'plab, so'ngra yozda ekin dalalariga oqizish maqsadida Qashqadaryoda suv sig'imi 500 mln. m³ bo'lgan Chimqo'rg'on, suv sig'imi 18 mln. m³ bo'lgan Qamashi (Lo'qliko'l), Ruzordarada sig'imi 283 mln. m³ bo'lgan Pachkamar suv omborlari qurilgan. Shuningdek, xudud hududida Amudaryodan suv oluvchi Sho'rsoy va Tolimarjon suv omborlari ham bor. Qarshi cho'li yana Eski Anhor kanali orqali Zarafshon daryosidan ham suv oladi. Bu ishlar Qarshi cho'lida asrlar osha qaqrab yotgan qo'riq yerlardi o'zlashtirishga imkon beradi.

Qashqadaryo tekislik xududining yer yuzasida suv kam bo'lsada, lekin yer osti suvining katta zahirasi bor. Bu yerda to'rtlamchi davr, yotqiziqlari orasidan chiquvchi suvlar hozirgi paytda chorvachilikni suv bilan ta'minlashda katta rolh o'ynamoqda. Shuningdek, bo'r, paleogen, neogen davr yotqiziqlari orasidan shifobaxsh issiq ma'danli suvlar topilgan.

Xududdagi juda ko'p qishloq, ishchi posyolkalari va shaharlarining suv quvurlari o'sha yer osti suvi hisobiga ishlaydi.

Qashqadaryo gidrogeologik rayonida yer osti suvining ishlatilish miqdori sekundiga 9,8 kubometrni tashkil etadi.

Qashqadaryo xududi tuproq qoplami uning ona jinsiga, relefiga, yer osti suvlarining xususiyatiga va iqlimiga borliq holda hudud bo'yicha bir xil tarqalgan emes. Qashqadaryo qayirlarida allyuvialo'tloq, qisman botqoqo'tloq tuproqlar mavjud bo'lsa, sug'oriladigan yerlarda o'tloq-voha, bo'z-voha tuproqlari tarqalgan. Xududning g'arbida sho'rlashgan surqo'ng'ir, qum va qumli taqir, taqir sho'rxok tuproqlar joylashgan. Qarshi cho'lida och bo'z tuproqlar, cho'lning sharqiy balandroq qismida esa tipik va to'q bo'z tuproqlar tarqalgan. Qarshi cho'lidagi Do'ltalisho'r, Sho'rsoy, Suxtasho'r kabi botiqlarda sho'rxok tuproqlar uchraydi.

Xududda asosan kserofit o'simliklar o'sadi. Xududning janubi-g'arbida, ya'ni Kogon-Qarshi temir yo'lining janubidagi mustahkamlangan, qumli yerlarda shuvoq, iloq, qora saksovul, quyonsuyak, kizil qandim, efemerlardan sariqbosh, yoliqora; bir yillik o'simliklardan qirqqiz, qumtariq; ko'p yillik o'simliklardan esa chayir, urrochi selin, tuyapaypoq o'sadi. Xududning shimolisharqidagi och bo'z tuproqli yerlarda qo'ng'irbosh, rang va kserofit o'simliklardan temir jusan, shuvoq, oq quvrak; sho'rxok o'simliklardan pashmak, sho'ra, Qarshi vohasining atrofidagi taqirli yerlarda buzoqbosh, har xil sho'ralar o'sadi. Xududning sharqiy tog' oldi qismida esa bug'doyiq, kavrak, qarg'aoyoq, Qashqadaryo qayirlarida qamish, yulg'un, yantoq uchraydi.

Xududning janubi-g'arbidagi qumli cho'llarda (Sandikli qumligida) Qizilqumga xos hayvonlardan gekkon va dumaloqbosh kaltakesaklar, qum bo'g'ma iloni, echkamarlar, gilli cho'lda esa kaspiy gekkoni, kemiruvchilardan qo'shoyoq, yumronqoziqlar uchraydi. Ahyon-ahyonda jayron, jayra va boshqa hayvonlar uchrab qoladi.

Qashqadaryo xududining tabiiy resurslari xilma-xildir. Bu yerda tabiiy gaz, neft, marmar va boshqa qazilmalarning muhim konlari bor.

Qashqadaryo xududida paxtachilik va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarining o'sishi hamda chorvachilikni rivojlanishi uchun qulay iqlim va yer resurslari mavjud. Bu yerda sug'orishga yaroqli 1,5 mln. gektar qo'riq yer bor bo'lib, shundan Qarshi magistral kanalining ishga tushirilishi munosabati bilan 200 ming gektari o'zlashtirilib, sug'orishshoqda. Xududdagi qo'riq yerlarni o'zlashtirish

uchun hozir Qarshi magistral kanali orqali Amudaryodav suv oladigan Tolimarjon (suv sig'imi 1033 mln m³ suv to'planadi) va Sho'rsoy suv omborlari (suv sig'imi 2,5 mlrd. m³ ga mo'ljallangan) qurilgan[8].

1.2. Janubiy mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.

Janubiy O'zbekiston viloyatlari respublikada sanoat mahsulotlarining hajmi, tarkibi, ixtisoslashuv va mujassamlashuv jihatlari bo'yicha boshqa hududlardan farq qiladi. Hozirgi vaqtda mintaqa respublika sanoat mahsulotining 1/6 qismini yetkazib bermoqda. Uning asosiy qismi neft, tabiiy gaz, gaz kondensati, oltingugurt, polietelin, qurilish sanoati xom ashyolaridan iborat. Xuddi ana shu sanoat tarmoqlari, xususan, yoqilg'i mahsulotlari mintaqaning respublika mehnat taqsimotidagi o'rnini ifodalab beradi. Mayjud shaharlarning aksariyati tuman markazlari vazifasini bajarib, ularda an'anaviy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi oziq-ovqat, paxta tozalash va to'qimachilik kabi yengil sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Qishloq tumanlarida sanoat mollarini ishlab chiqarish asosan tuman markazlari – shahar va shaharchalarda mujassamlashgan[18].

Surxondaryoda Denov, Jarqo'rg'on, SHo'rchi tumanlari jami aholi soni, sanoat hamda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha oldingi o'rinlarda turadi. CHunonchi, Denov tumani viloyat aholisining 15.2 foizini, sanoat mahsulotining 14.2 foizini va xalq iste'mol mollari (XIM)ning esa qariyb 30 foizini o'zida jamlagan. Bunda Denov shahridagi “Denov vino-arq” HJ, “Denov yog'-ekstraktsiya” OAJ va o'nga yaqin yangi shaharchalarda joylashgan kichik biznes sub'ektlarining ulushi ancha katta. SHo'rchi tumani ham viloyat aholisidagi ulushiga nisbatan sanoat mahsulotlarini 1.5 marta, iste'mol tovarlarini 3.1 baravar ko'p miqdorda ishlab chiqaradi. Ushbu ko'rsatkichlarning asosiy qismi SHo'rchi shahrida joylashgan “SHo'rchi don mahsulotlari” OTAJ hisobiga to'g'ri keladi.

Yuqorida nomlari qayd etilgan ishlab chiqarish ob'ektlarining to'laligicha zamonaviy texnologiyalar bilan qayta jihozlanishi natijasida ularning viloyat

sanoatidagi ulushi yanada ortib bormoqda. Ushbu ikki tuman asosan yengil sanoat tarmog'iga ixtisoslashgan, buni ularning iste'mol tovarlaridagi hissasidan ham ko'rish mumkin. Ayni vaqtda, viloyat og'ir sanoat tarmog'i juda zaif rivojlangan va, o'z navbatida, uning geografiyasi ham torroq ko'lamga ega. Ushbu sanoat tarmog'ida Jarqo'rg'on tumanida joylashgan "Jarqo'rg'onneft" korxonasi yetakchi hisoblanadi. Mazkur tuman viloyat sanoat mahsulotini 1/5 foizini ishlab chiqargan holda, uning asosiy qismi neft va neft mahsulotlariga to'g'ri kelganligi bois, iste'mol tovarlaridagi ulushi (3.1%) katta emas. SHuningdek, SHarg'un shahridagi ko'mir qazib chiqarish sanoati va yangi qurilgan To'palang SES viloyat og'ir sanoatining tayanch korxonalari sanaladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra Termiz shahrida sanoat tarmoqlari yaxshi shakllanmagan; Surxondaryoda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining atigi 8.8 foizi, iqtisodiy rayon doirasida esa 0.8 foizi Termiz shahriga to'g'ri keladi (2010 y.). Bu shahar respublikadagi viloyat markazlari orasida aynan shu jihati bilan ham ajralib turadi. Qolaversa, Surxondaryo viloyatining o'zini ham sanoat salohiyati ancha past.

Qashqadaryoda esa, aksincha, sanoat ahamiyatiga ko'ra viloyat markazi Qarshi shahri katta salohiyatga ega. SHaharga Janubiy O'zbekiston sanoat mahsulotining 16.8 foizi to'g'ri kelib, bu yerda yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari bilan birga, yoqilg'i, qurilish va mashinasozlik sanoatining ayrim tarmoqlari rivojlangan. Muborak va G'uzor tumanlarida asosan gaz qazib olish va qayta ishlash sanoatining rivojlanganligi tufayli, ular birgalikda viloyat sanoat mahsulotining 2/3 qismidan ortig'ini, SHahrisabz va Koson tumanlarining har biri 2.5 foizga yaqinini beradi. Qolgan barcha tumanlarda sanoat ishlab chiqarish viloyat ulushining 2.0 foizga yetmagani holda, birorta tuman aholisining hissasi 2.0 foizdan kam emas. Bu esa tumanlarning aholi soniga nisbatan sanoat ishlab chiqarishi orqada qolayotganligini ko'rsatadi.

Viloyat XIM ishlab chiqarish geografiyasi xam juda tor doirada bo'lib, bunda Qarshi shahrining ahamiyati juda katta (40.9 %). "Kashteks" fabrikasi, yog'-ekstraktsiya va un zavodlari, meva-sabzavotni qayta ishlovchi ko'plab korxonalar

aynan shu shaharda joylashgan. SHuningdek, SHahrisabz va Koson tumanlarining ham o'zlarida joylashgan yengil va oziq-ovqat sanoati ob'ektlari hisobidan viloyat XIM tarkibida sezilarli ulushlari bor (mos ravishda 22.6 % va 12.7 %). Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda bo'lgani kabi XIM tarkibida ham qolgan barcha tumanlar aholi ulushiga qaraganda past ko'rsatkichga ega. Ayniqsa, ancha katta demografik salohiyatga ega Dehqonobod, Kasbi va G'uzor tumanlarining bu boradagi hissasi 1.0 foizga ham yetmaydi.

Janubiy O'zbekistonga kiritilayotgan *investitsiyalar* hajmi 2704.8 mlrd. so'mni tashkil qilib, uning 80.0 foizdan ortig'i Qashqadaryoga va 20.0 foizga yaqini Surxondaryo viloyatiga to'g'ri keladi (2009 y)². Kapital qo'yilmalarning hududiy tarkibini tahlil qilish, yaqin kelajakda mintaqaning qaysi tuman va shaharlari jadal rivojlanishini ko'rsatib berishi bilan ahamiyatlidir. Hozirgi vaqtda Qashqadaryo viloyatida kapital qo'yilmalarining asosiy qismi mamlakatimiz uchun strategik nufuzga ega yangi neft-gaz konlarini aniqlash va ulardan foydalanish, sanoat korxonalari qurilishi hamda transport infratuzilmasini rekonstruktsiya qilish ishlariga sarflanmoqda. SHu boisdan, viloyatga kiritilayotgan investitsiya hajmida neft-gazga boy Muborak (28.0 %), Mirishkor (17.0 %), G'uzor (12.3 %) va kaliy zavodi qurilishi tufayli Dehqonobod (7.6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Ammo viloyatning Kasbi, Kitob, CHiroqchi, Yakkabog', Qamashi va Koson tumanlariga jami investitsiya xajmining atigi 9.0 foizi tegishli bo'lgan. Vaholanki, ushbu tumanlarda yirik miqdorda paxta va bog'dorchilik mahsulotlari yetishtiriladi.

Surxon vohasiga kiritilayotgan investitsiyalarning tarkibi xam Qashqadaryo viloyatiga o'xshash; bu yerda Boysun (Malayziyaning "Petronas" kompaniyasi Boysun geologik blokida qidiruv ishlariga), Sariosiyo (Xonjiza polimetall rudalarini o'zlashtirishga), Jarqo'rg'on (yangi neft-gaz konlarini topishga) va Qumqo'rg'on (Temir yo'l infratuzilmasini yaxshilashga) tumanlariga kapital qo'yilmalarning asosiy qismi to'g'ri kelmoqda.

² O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra 2010 yilda mintaqaga 2183.9 mlrd so'm investitsiya kiritilgan bo'lib, uning 27 foizi Surxondaryo va 73 foizi Qashqadaryo viloyatlariga to'g'ri kelgan.

Transport kommunikatsiyalari shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishida muhim rol o'ynash bilan bir vaqtda shaharlar taraqqiyotini boshqarishning asosiy dastaklaridan biri hisoblanadi. Janubiy O'zbekiston transport tizimining o'ziga xos tomoni yirik avtomobil va temir yo'llarining bir-biriga parallel ravishda o'tkazilganligi bo'lib, mintaqaning asosiy shaharlari aynan shu yo'llar yoqasida shakllangan. Umuman olganda, transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish natijasida sanoat tugunlari hamda shahar aglomeratsiyalarini shakllantirish mintaqada urbanizatsiya rivojlanishining muhim iqtisodiy geografik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Shaharlar va urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishining *sotsial omillari* tahlil qilinganda avvalambor ularga xizmat qiluvchi va shahar yaratuvchi (tashkil etuvchi) jihatlarni aniqlab olish talab etiladi. Binobarin, ushbu ishda umuman sotsial sohalar emas, aholiga xizmat ko'rsatuvchi, ularning shahar hosil qiluvchi xususiyatlari inobatga olinadi.

Janubiy O'zbekistonda ijtimoiy sohalarining hududiy tashkil etilishi urbanizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning yuqori bo'g'ini va asosiy markazlari aynan shahar joylarda tarkib topgan. Bu xususda I pog'onada viloyat markazlari – Qarshi va Termiz, II pog'onada SHahrisabz, Denov, III pog'onada qishloq tumanlari markazlari, IV bosqichda Qishloq fuqorolar yig'ini (QFY) markazi va so'nggi V pog'onada qishloq aholi punktlari turadi[5].

1.3. Janubiy mintaqaning geodemografik vaziyati.

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari aholisi tug'ilish va umuman tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari bo'yicha so'nggi yillarda mamlakatda doimo oldingi o'rinlarni egallagan. Tahlillar ko'rsatishicha, Janubiy iqtisodiy rayon shaharlarida aholi o'sishi asosan tabiiy harakatning yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Bu esa mintaqa urbanizatsiyasining eng muhim xususiyatlaridan birini belgilab beradi. 2009 yilgacha janubiy viloyatlarning har ikkisida ham urbanizatsiya darajasini amalda shaharlar belgilab berganligini, shaharchalar aholisi sonining mutloq va

nisbiy o'sish ko'rsatkichlari juda sekin o'zgarganligini qayd etish lozim. SHu o'rinda ta'kidlash lozimki, mintaqada urbanizatsiyaning demografik jarayonlarga ta'siri deyarli yo'q, aksincha, urbanizatsiyalashuv yuqori demografik ko'rsatkichlar, ya'ni aholining tabiiy harakati va yangi shaharchalar natijasida sodir bo'lmoqda.

Surxondaryo viloyati aholisining o'sish sur'ati so'nggi yillarda Qashqadaryo bilan birgalikda mamlakatimizda eng yuqori. Hozirgi kunda viloyat o'zining demografik salohiyati bo'yicha respublikamizda yettinchi o'rinda turadi. 1989 yilda, ya'ni so'nggi aholi ro'yxati bo'yicha 1253,8 ming, 2000 yilda 1771,2 ming kishi aholi bo'lgan. Demak, 22 yilda aholi soni 862,7 ming kishiga, shu jumladan, oxirgi 11 yilda 345,3 ming kishiga ko'paygan. Nisbiy ko'rsatkichlarda viloyat aholisi 1989-2011 yillarda 4,7 va 2000-2011 yillarda 1,2 marta ko'paygan. Garchi demografik rivojlanish sur'ati so'nggi yillarda biroz pasaygan bo'lsada, u respublikamizda eng yuqori hisoblanadi. Aholi sonining bunday o'sishi yangi ish o'rinlarini ko'paytirish, xalq iste'mol mollarini ko'proq ishlab chiqarishni zarur qilib qo'yadi.

Tumanlar miqyosida eng ko'p aholi soni Denov tumanida (331,7 ming kishi, 2011 y.). U mamlakatimizning Asaka, Urgut, SHahrisabz, Yakkabog' tumanlari singari eng ko'p aholi soniga ega bo'lgan birlamchi ma'muriy birliklar hisoblanadi. Umuman olganda, 1989-2011 yillarda aholi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati yuqori bo'lgan qishloq tumanlariga SHo'rchi, SHerobod, Termiz, Oltinsoy, Muzrabot, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on va Denov, o'rtacha ko'rsatkichlarga Qiziriq hamda Sariosiyo va past ko'rsatkichli hududlarga Angor, Boysun va Uzun tumanlari kiradi.

Aholi zichligi viloyat bo'yicha 1 kv km maydonga o'rtacha 108,2 kishi bo'lib, u Boysun tumanidagi 27 kishidan Denov tumanidagi 442 kishigacha farqlanadi. Mintaqa aholi geografiyasini asosan Surxon daryosi (viloyat nomi ham Surxondaryo) va unga parallel o'tgan temir hamda avtomobil yo'llari belgilab beradi. Aholi joylashuvi, eng avvalo, yangi o'zlashtirilgan Surxon - SHerobod

massivida, qadimdan qishloq xo'jaligi rivojlangan hududlarda zich, tog' va tog' oldi hududlarida esa u nisbatan siyrak (masalan, Boysun yoki Sariosiyo tumanlari).

Aholining bunday tez sur'atlarda o'sishiga tabiiy ko'payish hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Surxon vodiysi Qashqadaryo viloyati bilan birgalikda respublikamizda so'nggi yillarda kuzatilayotgan tug'ilish va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarining pasayib borish jarayoni bilan bog'liq **demografik to'liqlarning** eng so'nggi pallasida turadi. Boshqacha qilib aytganda, respublikamiz poytaxti Toshkent shahri va Toshkent viloyatida boshlangan bu jarayon asta-sekinlik bilan aynan shu mintaqada poyoniga yetadi, so'nib boradi. Binobarin, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari O'zbekiston Respublikasi demografik rivojlanishining hozirgi holatini ko'p jihatdan belgilab beradi.

Qashqadaryo viloyati o'zining aholi soni bo'yicha O'zbekistonda Samarqand va Farg'ona viloyatlaridan keyingi uchinchi o'rinni egallaydi. U ayni vaqtda, aholi sonining o'sishi jihatidan Surxondaryo viloyati bilan birgalikda mamlakat demografik vaziyatida yetakchilik qiladi: agar O'zbekiston aholisi 1989-2011 yillarda 125,1 foizga o'sgan bo'lsa, Surxondaryoda bu ko'rsatkich 141,5 va Qashqadaryoda 138,8 foizga teng. SHu o'rinda ta'kidlash lozimki, bu ikki viloyat umumrespublika hozirgi demografik vaziyatini shakllantirishda muhim rolg' o'ynaydi.

Aholi soni bo'yicha viloyatda CHiroqchi tumani oldinda turadi (326,0 ming, 2011 yil); SHahrisabz tumanida ham, SHahrisabz shahrini qo'shib hisoblaganda, aholi 306 ming kishi. SHuningdek, Qamashi, Koson, Kitob va Yakkabog' tumanlarining har birida 200 ming kishidan ko'proq aholi bor. Umuman, yuqorida keltirilgan qishloq tumanlari bu jihatdan respublikamizda ham ajralib turadi. Aholi soni faqat Mirishkor va Muborak tumanida 100 ming kishidan oz, xolos (45-ilova).

Viloyat tabiiy geografik muhitiga mos holda aholi uning hududida bir tekis joylashmagan. O'rtacha zichlik 1 km² ga 93 kishi, bu raqam respublika o'rtacha ko'rsatkichidan deyarli 1,5 marta yuqori. Aholi, xususan, Kasbi (237 kishi), Qarshi (218 kishi), Yakkabog' (196 kishi) va SHahrisabz (184 kishi) tumanlarida zich joylashgan, Muborak, Dehqonobod, Mirishkor qishloq tumanlarida zichlik ancha past.

Keyingi yillar maboynida, ya'ni 1989-2011 yillar oralig'ida aholi soni ancha tez ko'payib borgan: Muborak tumanida o'rtacha yillik ko'payish 5,70, Kosonda 4,75 %, Kitob va Nishon tumanlarida 4,10 foizni tashkil qilgan. Nisbatan pastroq demografik o'sish Dehqonobod (2,40 %), Qarshi (2,50 %) va Kasbi (2,50 %) tumanlarida kuzatiladi. SHu o'rinda e'tirof etish lozimki, mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha Muborak tumani respublikamizda eng oldingi o'rinlarni egallaydi. Tuman aholisining bunday tez o'sishi nafaqat tabiiy ko'payish, balki aholi migratsiyasi bilan ham bog'liq (tabiiy resurslarni o'zlashtirish natijasida aholi bu yerga ko'plab ko'chib kelgan).

Yuqori mintaq (SHahrisabz, Yakkabog' va Kitob tumanlari) ko'p jihatdan respublikamizning aholisi zich, xo'jaligi intensiv rivoj topgan voqa va vodiylariga o'xshab ketadi. SHu bilan birga, aholi zichlik ko'rsatkichlari quyi mintaqaning ayrim tumanlarida (Kasbi, Qarshi) ham ancha yuqori[14].

Viloyatda tabiiy harakat ko'rsatkichlari boshqa hududlarga qaraganda (Surxondaryodan tashqari) sezilarli darajada farq qiladi. CHunonchi, bu yerda tug'ilish koeffitsienti har 1000 kishi aholiga 23,7 kishini tashkil etadi. Eng yuqori daraja 2000 yilda CHiroqchi tumanida bo'lib, u bu yerda yaqin 34 kishiga barobar (O'zbekistonda oldingi o'rinlarda). Muborak tumanida ham tug'ilish ancha yuqori – 30,7 %. Ayni vaqtda umumiy tug'ilish koeffitsienti SHahrisabz tumanida past, Qarshi shahrida esa u 16,7 promille. 2010 yilda ham CHiroqchi tumani tug'ilish koeffitsienti bo'yicha ajralib turadi (28,4 %). Qolgan qishloq tumanlari orasida katta farq kuzatilmaydi, viloyat markazi – Qarshi shahrida tug'ilish 20,4 promille.

II.BOB. JANUBIY MINTAQA XUDUDLARINING IQTISODIY TAVSIFI.

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan agrar-industrial yo'nalishga ega. Yaqin kelajakda uning industrial-agrar xususiyatini olishiga tegishli imkoniyatlar mavjud. Hozirgi vaqtda viloyat yuksak iqtisodiy salohiyatiga molik bo'lgan mintaqalardan biri hisoblanadi, u respublika milliy iqtisodiyotida o'ziga xos "lokomotiv" vazifasini bajaradi.

2.1. Qashqadaryo viloyati sanoat rivojlanishining umumiy tavsifi.

Qashqadaryo Qashqadaryoda neft-gaz, tog'-kon kimyosi, paxta, g'alla, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish yaxshi rivojlangan. Xususan, neft va gaz, paxta va g'alla yetishtirishda u mamlakatimizda birinchi, kimyoviy mahsulotlar (polietilen va b.) hamda chorvachilik bo'yicha ham oldingi o'rinlarning birini egallaydi.

2010 yil yakunlariga ko'ra, mintaqa yalpi hududiy mahsulotining 40,7 foizini sanoat ishlab chiqarish ta'minlagan (2009 yilda – 46,1 %). Qishloq xo'jaligining ulushi 18,4 %, qurilishniki 7,0; transport va aloqa YaHM-ning 4,5 %, savdo va umumiy ovqatlanish 4,3 foizini ta'minlaydi. Boshqa hududlarda bo'lganidek, bu yerda ham bozor islohotlariga katta e'tibor berilmoqda. Ammo viloyat sanoatini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish o'ziga xos xususiyatga ega. Sababi sanoatning asosan yoqilg'i-energetikaga ixtisoslashganligi, ya'ni strategik ahamiyat kasb etishi tufayli nodavlat sektori bu sohada nisbatan pastroq.

2010 yilda kapital qo'yilmalarning eng katta qismi Muborak (28,0 %) Mirishkor (16,9 %) va tumanlariga to'g'ri kelgan. SHuningdek, G'uzor (12,3 %) tumani va Qarshi shahrining (11,0 %) investitsion salohiyati ham yuqoriroq bo'lgan. Eng so'nggi yillarda Dehqonobod tumanida respublikamizda yagona kaliy zavodini qurish munosabati bilan bu hududga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari ham ortib bormoqda (7,7 %). SHu bilan birga, CHiroqchi, Kasbi,

Qamashi, Kitob qishloq tumanlarida 2010 yilda tahlil etilayotgan ko'rsatkichlar ancha past bo'lgan.

Sanoati. 2010 yil yakunlariga ko'ra, sanoatining ichki tuzilishi quyidagicha: yoqilg'i sanoatining ulushi (mahsulot qiymati bo'yicha) 75,9 foiz, yengil sanoat – 7,4, oziq-ovqat 4,8, un-krupa, omuxta yem sanoati – 2,8 foiz. Taqqoslash uchun: 2000 yilda yuqoridagi ko'rsatkichlar, mos holda, 56,4; 18,1; 9,2; va 2,6 foizni tashkil qilgan. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, so'nggi 10 yil davomida mintaqqa sanoati tarkibida ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish yoki og'ir sanoat tarmoqlari jadal rivojlanib borgan. Bu ham bo'lsa viloyat iqtisodiyotini industriyallashtirishning natijasi sanaladi[12].

Yalpi hududiy mahsulotining ichki tarkibi ham uning iqtisodiyotini tobora industrial-agrar yo'nalishga o'tib borishini asoslab beradi. Jumladan, 2008 yilda yalpi hududiy mahsulotning 33,0 foizi sanoat ishlab chiqarishiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2010 yil u 40,7 foizga barobar bo'lgan. Boshqa mintaqalarga qaraganda bu yerda qishloq xo'jaligining ulushi pastroq – 18,4 %, vaholanki, bu ko'rsatkich Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarida bundan 2 marta ziyod. Ayni vaqtda bu yerda mashinasozlik sust rivojlangan; kimyo va elektr energetika sanoatiga esa katta e'tibor qaratilmoqda. SHo'rtangaz majmuasi, Dehqonobodda qurilayotgan kaliy zavodi, birinchi navbatida ishga tushirilgan Tolimarjon IES fikrimizga dalil bo'la oladi. SHuningdek, viloyat energetika bazasida Muborak issiqlik energetika markazi ham muhim o'rin tutadi.

2009 yilda sanoat mahsuloti 2008 yilga nisbatan taqqoslama narxlarda 16,5 foizga ko'paydi. Ana shu yilda viloyatda jami 116 ta sanoat korxonalari mavjud bo'lib, yiriklari 41 ta. Bir yilda taxminan 1,6-2,0 mln. t neft, 50-55 mlrd. m³ tabiiy gaz, 1,5-2,0 mln. t atrofida gaz kondensati (suyultirilgan gaz), 300 tonnaga yaqin oltingugurt, 129 ming t polietilen, 2 mln. m² ip-gazlama, 146-150 ming tonna paxta tolasi, 20-25 ming tonna o'simlik yog'i, 25-26 mln. shartli banka konserva, 190 ming t un va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Nisbiy ko'rsatkichlarda hisoblaganda Qashqadaryoga O'zbekistonda qazib olinadigan neftning (gaz kondensati bilan birga) 95 foizi, tabiiy gazning 92 va

oltingugurtning deyarli 100 foizi to'g'ri keladi. SHu o'rinda qayd etish joizki, avvalgi yillarda mutloq ko'rsatkichlarning ba'zilar ancha yuqori bo'lgan. Masalan, 2000 yilda neft qazib olish 3,6-4,0 mln. t, suyultirilgan gaz 3,5 mln. t, ip-gazlama 5,0 mln. kv metrdan ziyodroq, konservalar 75 mln shartli bankani tashkil qilgan; faqat paxta tolasi va o'simlik yog'ini ishlab chiqarish bu davrda ko'paygan.

Bundan xulosa qilish mumkinki, viloyatning yoqilg'i sanoatidagi "siljishlar" respublika umumiy yoqilg'i-energetika sanoati holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. SHu bilan birga, ip-gazlama hamda meva-konservalar ishlab chiqarish hajmining qisqarishini ham ijobiy baholab bo'lmaydi. Paxta hosilining, jumladan, paxta tolasini ishlab chiqarishni ortib borishiga qaramasdan uni qayta ishlash hajmi, ip-gazlama mahsulotlarini tayyorlash ancha katta miqdorda qisqargan. Albatta, bu yerda ham vaziyat qoniqarli emas.

Sanoatning hududiy tashkil etilishida Qarshi, SHahrisabz tugunlari katta ahamiyatga ega; Muborak (IEM, gaz-kimyo majmuasi), Koson (yog'-ekstrakt, paxta tozalash, g'isht zavodi), SHo'rtan (neft-gaz-kimyo), Tolimarjon (IES), Ko'kdumaloq (neft), CHiroqchi (konserva zavodi) va boshqa sanoat punktlarining ahamiyati ham oshib bormoqda. Qarshi, Qamashi va SHahrisabzda to'qimachilik korxonalari ("Oqsaroy - to'qimachi" QK, ipakchilik), aksariyat tuman markazlarida paxta tozalash zavodlari mavjud.

Viloyatda gaz kondensatini Muborak neft-gaz konlari, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, "SHo'rtan neft-gaz" sho''ba korxonasi, SHo'rtangaz kimyo majmuasi hamda "Hisor neft-gaz" qo'shma korxonalari ishlab chiqaradi. Ularning orasida gaz kondensati bo'yicha Muborak neft-gaz konlari boshqarmasi va SHo'rtan neft-gaz, neft va tabiiy gaz qazib olishda Muborak neft-gaz konlari yetakchilik qiladi. Suyultirilgan gazning yarmiga yaqinini SHo'rtangaz kimyo majmuasi yetkazib beradi, ikkinchi o'rinda SHo'rtan neft-gaz sho''ba korxonasi turadi. Oltingugurtning deyarli 100 foizga yaqinini Muborak gazni qayta ishlash zavodi ta'minlaydi. Jami sanoat mahsulotining 16,9 foizi viloyat markazi - Qarshi shahriga to'g'ri keladi. Muborak tumanida sanoat mujassamlashuv ko'rsatkichi bundan ham yuqori – 43,2 foiz. SHuningdek, G'uzor tumanida ham sanoat ishlab

2-rasm Қашқадарё вилояти иқтисодий харитаси



chiqarishi yuqori darajada – 26,1 %. Demak, bu ikki qishloq tumani viloyat markazi bilan birgalikda jami sanoat mahsuloti hajmining 86,2 foizini beradi. Qolgan hududlarda sanoat sust rivojlangan. Bu borada biroz SHahrisabz va Koson tumanlari ajralib turadi, Dehqonobodda esa ushbu makroiqtisodiyot tarmog'i yaqin yillarda rivojlanib boradi.

Qashqadaryo viloyati demografik vaziyati, aholisining tez ko'payib borishi xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish ko'lamini oshirishni taqozo etadi. 2010 yilda aholi jon boshiga hisoblaganda iste'mol mollari ishlab chiqarish oldingi yilga nisbatan 108,8 foizga ko'paygan. Agar aholi sonining bu davrdagi 2,2 foizga ortganini hisobga olsak, iste'mol mollari ustuvor darajada ko'payib borishining guvohi bo'lamiz. Ko'rilayotgan yilda mebel, xo'jalik sovuni, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, mineral suv ishlab chiqarish hajmi ancha ko'tarilgan. Xususan, trikotaj mahsulotlari tez ko'paygan (2010 yilda 2009 yilga nisbatan 4,8 marta). Biroq o'simlik yog'i 2008 yildagi 35,1 ming tonnadan 2010 yilda 18,6 ming tonnaga kamaygan.

XIM ishlab chiqarish bo'yicha Qarshi shahri, SHahrisabz va Koson tumanlari oldinda. Aynan shu hududlarda yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari yaxshiroq rivojlangan. Ularning hissasiga 76,2 % viloyatda olingan XIM to'g'ri keladi (jumladan, Qarshi shahriga – 40,9 %). Bu soha, ayni paytda Dehqonobod, G'uzor, Kasbi tumanlarida juda sust[12].

Qishloq xo'jaligi. Viloyatda agrar soha ham yaxshi rivojlangan. 2009 yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda yaratilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti oldingi yilga nisbatan 3,4 foizga ortgan (2010 yilda 7,1 foizga). Jami mahsulot hajmida dehqonchilik 52,7 foizni tashkil qiladi. Umumiy hajmda mintaqa O'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotining 8,1 foizini beradi.

Qashqadaryo viloyatining umumiy yer maydoni 2857 ming ga, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar 2195 ming ga yoki jami maydonga nisbatan 76,8 %. Sug'oriladigan yerlar 461 ming ga yoki jami qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 21,0 foizi demakdir. Bunday yerlar ulushi eng yuqori Kasbi tumanida - 90,8 %; ikkinchi o'rinda Qarshi tumani turadi - 66,4 %.

Muborak, SHahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi va, ayniqsa, Dehqonobod tumanida u juda past (atigi 1,0 foizga yaqin).

Jami ekin maydoni 682,7 ming ga, uning 2/3 qismiga yaqini fermer xo'jaliklarida. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibida ekin maydonlari 31,1 foizni tashkil qiladi. Bu xususda Kasbi (87,0 %), CHiroqchi (51,2 %), Qarshi (67,0 %) tumanlari oldinda, Muborak (13,1 %), Dehqonobod (15,9 %) va Mirishkor (20,0 %) oxirgi o'rinlarda turadi.

2010 yil yakunlari bo'yicha viloyatda jami ekilgan maydonlar 493 ming ga bo'lgan. SHundan donli ekinlar 250 ming ga, yalpi hosil 983 ming tonna. SHu yilda 218 ming gektarga bug'doy ekilgan; yalpi hosil 921 ming tonna, hosildorlik 40,4 t/ga (2009 yilda 982 ming t., hosildorlik 44,7 t/ga). Hosilning 86,4 foizi fermer xo'jaliklarida yetishtiriladi. Bug'doy barcha tumanlarda, shuningdek, CHiroqchi, Qamashi va Yakkabog' tumanlarida lalmikor yerlarga ham ekiladi.

Qishloq xo'jaligining ikkinchi yetakchi ekini - paxta 168 ming gektarni egallaydi (2008 yilda 173 ming ga, 2000 yilda 150 ming ga). 2010 yilda 435 ming tonna paxta yetishtirilgan, bu oldingi yilga qaraganda qariyb 35 ming tonnaga ko'p, hosildorlik 25,8 t/ga (2008 yilda - 26,0 t/ga). Ma'lumki, g'alla va paxta yetishtirish bo'yicha Qashqadaryo respublikamizda birinchi o'rinda turadi.

Kartoshka 6,2 ming gektar yerga ekilgan, yalpi hosil 98 ming t; sabzavot maydoni 14,4 ming ga, xosil 321,5 ming t, poliz ekinlari 6,3 ming ga va yalpi hosil 86,1 ming t. Yem-hashak ekinlari 39,6 ming gektarni egallaydi, uning yarmidan ko'prog'i beda bilan band. Mevalar maydoni 10,7 ming ga, yalpi hosil 73,5 ming t. Bog'dorchilik tog' va tog'oldi hududlarda joylashgan (SHahrisabz, Yakkabog', Kitob, Qamashi va b.) tumanlarda rivojlangan. Bu yerlarda uzum yetishtirish ham yo'lga qo'yilgan, uning umumiy maydoni 6,9 ming ga, hosil 50 ming t. Kitob tumani o'zining anorlari (Varganza va b.), Kasbi tumani bodomzorlari bilan (Maymanoq) mashhur.

Viloyatda 1040,9 ming bosh qoramollar, 3233 ming bosh qo'y va echkilar bor (bu borada ham Qashqadaryo birmuncha oldinda). Mintaqa agrosanoat majmuida 179 ming t tirik vaznda go'sht, 657 ming t sut, 195,1 mln. dona tuxum, 4,4 ming t jun, 99,5

ming dona qorako'l terisi, 2,8 ming t pilla olinadi (2010 y.). Taqqoslash uchun ba'zi ma'lumotlar (2000 yilda): umumiy ekin maydoni 461 ming ga yoki respublikaga nisbatan 12,2 %, g'alla maydoni 202 ming ga (respublikada birinchi o'rinda), paxta

1-jadval

**Qashqadaryo viloyatida aholi jon boshiga ba'zi bir mahsulotlar ishlab
chiqarish va xizmatlar (2010 y., ming so'm)**

t/r	Tumanlar	Sanoat	XIM	Qishloq xo'jaligi	CHakana savdo aylanmasi	Pullik xizmatlar
1	Dehqonobod	219,5	16,2	419,9	315,4	105,9
2	Kasbi	297,4	11,9	1036,0	150,4	53,8
3	Kitob	96,9	74,7	640,2	445,8	216,7
4	Koson	408,7	190,7	618,1	425,8	122,4
5	Mirishkor	436,5	44,6	482,0	266,7	96,0
6	Muborak	30194,8	73,6	625,6	406,3	398,1
7	Nishon	422,3	21,5	1371,1	381,7	109,3
8	CHiroqchi	85,6	38,6	455,1	177,5	55,3
9	SHahrisabz	316,5	254,5	311,1	363,5	84,0
10	Yakkabog'	166,9	65,9	515,1	380,2	86,3
11	Qamashi	226,8	44,4	539,8	355,2	125,8
12	Qarshi	253,5	36,0	539,3	208,1	129,0
13	G'uzor	6175,1	20,8	513,4	320,7	90,4
Viloyat bo'yicha		1664,5	129,5	503,0	497,4	142,5

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

maydoni 150 ming ga, yem-hashak maydoni 55 mingga, yirik shoxli qoramollar soni 580 ming bosh, qo'y va echkilar 1,9 mln. bosh, qorako'l terisi 110 ming dona, pilla 1,8-1,9 mln. t. Bundan 10 yil muqaddam jami ekin maydonining 45 % g'alla, 32 % paxta, 12 % yem-hashak, 2 foizi sabzavotchilik bilan band bo'lgan.

Qishloq xo'jalik geografiyasida Koson (10,7 %), CHiroqchi (10,9 %) tumanlari yetakchi, Dehqonobod va Muborak tumanlari orqada. Aholi jon boshiga hisoblaganda

yuqori ko'rsatkichlar Nishon, Kasbi tumanlarida, eng pastlari esa SHaxrisabz va Dehqonobod tumanlarida qayd etiladi.

Viloyatda jami 7139 ta fermer xo'jaliklari mavjud, ularga 734 ming ga yer biriktirilgan va 408,3 ming kishi ishlaydi. Yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibida fermer xo'jaliklarining hissasi o'rtacha 41,9 % (respublikamiz miqyosida ancha yuqori). Bu ko'rsatkich Dehqonobodda juda past (3,4 %), Nishon, Mirishkor tumanlarida esa u eng baland (60,9 va 61,5 %). Hududiy farqlar asosan agrar sohaning ixtisoslashuviga bog'liq. Odatda, dehqonchilik, xususan paxta ekishda fermerlar etakchilik qiladi.

Yer maydonlari va ularda ishlaydigan xodimlar soni ham bir xil emas. Masalan, Muborak tumanida 1 ta fermerga 181,2 ga yer va 16,3 kishidan ishchi xodimlar to'g'ri keladi (viloyatda o'rtacha 104,1 va 15,2 kishi). Kitob tumanida bu ko'rsatkichlar, mos ravishda, 41,9 va 10,4; Mirishkor tumanida 119,1 va 14,6. Intensiv sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlarda fermer xo'jaliklarining yer maydoni kam, ishlovchilar soni esa ko'proq bo'ladi. Jumladan, Kasbi tumanida har bir fermer xo'jaligiga 8,7 gektar yer biriktirilgan bo'lib, ularda o'rtacha 21,6 kishi ishlaydi, vaholanki, Dehqonobodda bu ko'rsatkichlar 118,9 va 4,7 kishini tashkil qiladi. SHu o'rinda e'tiborga olish zarurki, mamlakatimizda olib borilayotgan fermer xo'jaliklarini optimallashtirish siyosatini amalga oshirish natijasida ularning soni keskin qisqardi, biriktirilgan yer maydonlari esa keskin ko'paydi.

Hududiy ixtisoslashuv jihatidan qaralganda, Yuqori zonada yoki SHahrisabz guruh tumanlarida paxtachilik, bog'dorchilik va g'allachilik, Quyi zonada, ya'ni Qarshi dashtida paxtachilik rivojlangan. CHorvachilik, xususan, qo'y va echkilarni boqish cho'l va tog'oldi hududlarda ko'proq tarqalgan. Viloyat markazi hamda SHahrisabz atrofida shahar atrofi qishloq xo'jaligi, sabzavot va kartoshka, ko'katlar yetishtirish bilan shug'ullanadi[10].

Ijtimoiy sohalarning ustuvor rivojlanishi o'ziga xos demografik vaziyatga ega bo'lgan Qashqadaryo viloyati uchun ham dolzarbdir. Bu sohada, xususan ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo va turli xil xizmatlar asosiy ahamiyat kasb etadi. 2010 yilda chakana savdo aylanmasi oldingi yilga nisbatan 120,6 foizga

ko'paygan, bu raqam esa aholi soni ko'payishiga qaraganda qariyb 7 marta yuqoridir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana savdo aylanmasi, Qarshi shahrini hisobga olmaganda, Kitob tumanida eng yuqori, eng pasti esa Kasbi tumanida kuzatiladi. Salohiyat nuqtai nazaridan esa SHahrisabz, Kitob va Qarshi qishloq tumanlari ajralib turadi; jami viloyat chakana savdo aylanmasining 41,6 foizi birgina Qarshi shahri zimmasiga tushadi. Bu uning yirik rayon hosil qiluvchi yoki rayonga xizmat qiluvchi vazifasini ko'rsatib turibdi.

Viloyat aholisining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi o'rtacha 81,7 %, tabiiy gaz bilan esa – 70,4 %. Ajablanarlisi shundaki, eng katta tabiiy gaz ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lgan bunday mintaqada mazkur ko'rsatkich uncha yuqori emas (aytish mumkinki, har 10 ta xonadondan 3 tasida tabiiy gaz yo'q).

Tibbiyot sohasida, har 10 ming kishiga to'g'ri keladigan bemor o'rinlar soni 40,7 ta. Vrachlar har 10 ming kishiga 19,4, o'rta meditsina xodimlari 99,5 kishi (bu raqamlarni boshqa viloyatlar bilan solishtirish mumkin). Qishloq vrachlik punktlari 259 ta, o'rtacha to'rtta qishloq aholi punktiga bitta QVP to'g'ri keladi.

Ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi SHaxrisabz, Muborak va Kitob tumanlarida birmuncha yaxshiroq (86-88 % ga yaqin). Dehqonobod tumanida esa u ancha nochor holatda (51,5 %). Tabiiy gaz bilan ta'minlanish quyidagicha: Kasbi tumanida 80,6 %, Nishonda 79,2 % bo'lgan holda, G'uzorda 43,4 % (SHo'rtangaz majmuasi shu hududda), Dehqonobodda 44,2 %. SHuningdek, Yakkabog' va Qamashi tumanlarining ham vaziyati uncha yaxshi emas (51,5 va 44,0 %).

Uy-joy ta'minoti viloyat bo'yicha o'rtacha har bir kishiga 13,2 kv. m to'g'ri kelgani holda, bu ko'rsatkich Kitob (18,8) va Muborak (19,9) tumanlarida yuqori, Koson tumanida u past (7,9 m²). Har 10 ming kishiga nisbatan kasalxona o'rinlari, Qarshi shahrini hisobga olmaganda, Qarshi tumanidagi 12,3 dan Kitob tumanidagi 62,5 tagacha farqlanadi. G'uzor, Qamashi, CHiroqchi tumanlarida ham bu ko'rsatkich past. Qarshi tumanidagi holatni uning geografik o'rni bilan izohlash mumkin.

Yuqoridagi keltirilgan statistik raqamlar ba'zi ijtimoiy sohalarning qishloq tumanlari miqyosidagi real holatini aks ettiradi. O'z navbatida, bu ko'rsatkichlar viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarining hududiy jihatlarini yaqqol namoyon qiladi.

Qashqadaryo viloyatida o'rta ta'lim maktablari 1116 ta, kasb-hunar kollejlari 125 ta, 7 ta akademik litsey va 2 ta oliy o'quv yurti bor. Qarshi davlat universitetida turli yo'nalishlar bo'yicha bakalavr va magistrLAR tayyorlanadi.

Mintaqada katta rekreatsiya va turistik resurslarning mavjudligi ushbu sohalar rivojlanishining muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda 2750 yillik tarixga ega bo'lgan SHahrisabz, 2500 yilga to'lgan Qarshi shahrining xalqaro va mahalliy turizmni rivojlantirishda ahamiyati katta. Viloyatning bu va boshqa joylarida turistik industriya va turistik infratuzilmani zamonaviy shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda[11].

Transport va tashqi iqtisodiy aloqalari. Viloyatda transport tizimining turli xillari mavjud. Ammo yuk tashishda avtomobil transporti oldingi o'rinda turadi. 2010 yilda umumiy 38,0 mln. tonna tashilgan yukning deyarli barchasi (33,1 mln. t) avtomobil transportiga to'g'ri keladi. SHu yilda jami 331,2 mln. yo'lovchi tashilgan, uning 330,1 mln. kishisi avtomobil transportida amalga oshirilgan.

Qashqadaryo neft va gaz konlaridan mamlakatimizning turli rayonlariga hamda qo'shni davlatlarga quvur transporti tarqalgan; Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, ko'pgina yirik issiqlik elektr stantsiyalariga aynan shu yerdan yoqilg'i yetkazib beriladi. SHuningdek, yaqinda qurilgan Toshg'uzor – Boysun – Qumqo'rg'on temir yo'lining ahamiyati ham katta. Qarshi shahrida yirik aeroport bor, u viloyat aholisining tashqi aloqalariga xizmat qiladi.

Tashqi savdo aylanmasi 2009 yilda 2461,7 mln AQSH dollari, shundan eksport 2068,7 mln va import 393,0 mln dollar. Demak, savdo balansi viloyat foydasiga – 1675,7 mln dollar bo'gan. Eksport tarkibida yoqilg'i (asosan tabiiy gaz) 88,1 %, paxta tolasi – 7,6 foizni tashkil qilgan. Bunday eksport tarkibi respublikamizning ko'pgina boshqa viloyatlarida kuzatilmaydi. Bu yerdan kimyoviy mahsulotlar, jumladan, polietilen ham eksport qilinadi. Import tarkibida

mashina va uskunalar (40,9 %) hamda qora va rangli metallar yetakchilik qilgan (14,9 %). Tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy qismi “Uzoq xorij” mamlakatlariga to’g’ri keladi.

Biroq, 2010 yilda viloyatning tashqi iqtisodiy aloqalarida keskin o’zgarishlar yuzaga keldi: tashqi savdo aylanmasi 2009 yilga nisbatan atigi 17,6 foizni, eksport – 16,3 % va import 24,0 foizni tashkil qildi. Bunday “anomal” vaziyat, eng avvalo, yoqilg’i sanoati tufayli sodir bo’ldi. Masalan, paxta tolasining eksporti 134,8 foizga o’sgan holda, energiya uzatuvchilar bor-yo’g’i 2009 yilda 1,2 foizga teng bo’ldi. Ayni vaqtda energiyani import qilish 43,3 martaga oshdi. O’ylaymizki, bunday kutilmagan holat respublikamiz milliy iqtisodiyotida muhim o’rin tutgan Qashqadaryo viloyati uchun muvaqqat, o’tkinchidir.

Viloyat iqtisodiyotining hududiy tarkibi va asosiy muammolar. Qashqadaryo viloyatida, eng avvalo, ikkita shakllangan asosiy ichki iqtisodiy rayon ajratiladi. Quyi mintaqa yoki Qarshi mintaqasi paxta va g’alla, chorvachilikka, neft-gaz, tog’-kon hamda elektr energetikaga ixtisoslashgan. Uning tarkibiga Qarshi shahri, Qarshi, Nishon, Muborak, Koson, G’uzor, Kasbi va Mirishkor tumanlari kiradi.

Yuqori yoki SHahrisabz mintaqasida ko’proq agrosanoat majmuasi rivojlangan. U SHahrisabz, Yakkabog’ va Kitob tumanlarini birlashtiradi. Bu ikkita - shakllangan rayonlardan tashqari Qashqadaryo geografi M.Yangiboev yana ikki SHimoliy (CHiroqchi tumani) va Janubiy (Dehqonobod va Qamashi tumanlari) rayonlarni ham ajratgan. Albatta, bu yangi rayonlarda hududiy ishlab chiqarish majmuasi endi shakllanib bormoqda. Balkim, Dehqonobod, G’uzor, Qamashi va CHiroqchi tumanlarini oraliq yoki O’rta iqtisodiy rayon sifatida ajratish haqiqatga yaqin bo’lar.

Viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ichki tafovutlar qishloq tumanlari miqyosida yanada aniqroq ko’zga tashlanadi. Jadvaldan ko’rinib turibdiki, asosiy ishlab chiqarish sohalari, ya’ni sanoat va qishloq xo’jaligi bo’yicha Muborak va G’uzor tumanlari ajralib turadi. Ijtimoiy sohalar Kitob, Muborak hamda Nishon tumanlarida nisbatan yaxshiroq. Hozircha eng sust rivojlangan qishloq tumanlari Dehqonobod va Chiroqchi.

Yaqin kelajakda ishlab chiqarishni to'g'ri hududiy tashkil etilishini takomillashtirish, mehnat resurslari, rekreatsiya hamda turistik imkoniyatlardan foydalanish, to'qimachilik va qurilish sanoati bazasini mustahkamlash, transport va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

So'nggi yillarda Tolimarjon IES va Toshg'uzor–Boysun–Qumqo'rg'on temir yo'lining qurilishi mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ular viloyat iqtisodiy geografiyasiga katta o'zgarishlar kiritadi. SHu bilan birga, kelajakda yangi ichki temir va avtomobil yo'llarini qurish bunday katta hududga ega bo'lgan mintaq uchun zarurdir. Jumladan, Yakkabog' va Ayritom bekatlarini birlashtiruvchi temir yo'l qurilsa, viloyatning ikkinchi shahri - SHahrisabz respublika markaziy rayonlari bilan qisqaroq masofada bog'lanish imkoniyatiga ega bo'ladi va transport harajati kamayadi, Qarshi stantsiyasining "yuki" biroz yengillashadi. Qolaversa, bu yo'l viloyatning ichki hududlarini rivojlanishiga turtki beradi, natijada, Qashqadaryoning asosiy iqtisodiy o'zagi (qovurg'asi) Qarshi–G'uzor–Qamashi–Yakkabog' (SHahrisabz)–Chiroqchi–Ayritom halqasi yoki to'rtburchagi vujudga keladi. Ayni vaqtda G'uzorning transport tuguni sifatidagi ahamiyati kuchayadi, Dehqonobod tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi faollashadi va u Qashqadaryoni Surxondaryo viloyati bilan bog'lashga xizmat qiladi, shu asosda yagona Janubiy iqtisodiy rayon shakllanib boradi. SHaxrisabz tugunining rivojlanishi, dovonning ikki tomonida joylashgan Urgut va Kitob tumanlar iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish esa Qarshi – Buxoro – Samarqand uchburchagini, respublikamiz janubi-g'arbiy qutbini yanada mustahkamlaydi.

Demak, istiqbolda G'uzor, Yakkabog', Ayritom, Qarashina, CHin, Kitob kabi o'sish nuqta va markazlari vujudga keladi, Qarshi va uning aglomeratsiyasi takomillashadi, xuddi shunday aholi va xo'jalikni hududiy tashkil etish shakli SHahrisabz negizida ham paydo bo'ladi[12].

2.2. Qashqadaryo viloyati canoatini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Iqtisodiyot va uning etakchi tarmog'i xisoblangan sanoat ishlab chiqarishida chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish mamlakatimizda amalga

oshirilayotgan iqtisodiy isloxotlarning muxim strategii vazifasi xisoblanadi. Sanoat tarkibiy tuzilishini tubdan uzgartirish milliy manfaatlarni ta'minlovchi iqtisodiy usishga yo'l beruvchi va aholi farovonligini muttasil oshib borishiga olib keluvchi yangicha ishlab chiqarish tuzilmasini yaratishdir.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar uning xom ashyo etishtirishdan iborat bir tomonlamaligiga chek kuyish, tarmoq tarkibini tubdan o'zgartirish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda yo'l qo'yilgan nomutanosibliklarga barxam berish, iste'molga tayyor, to'gallangan mahsulot ishlab chiqarishga o'tishi, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini jahon bozori talablari darajasiga etkazib, mamlakat eksport salohiyatini oshirish, mexnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlash, yangi texnologiyalarga o'tish, xalqimizning milliy va tarixiy an'analariga mos keladigan yangi sohalarni barpo etish, mavjud mineral va qishloq xo'jalik xom ashyolarini chuqurroq qayta ishlashga qaratilmog'i lozim.

Iqtisodiy isloxotlarning yangi bosqichi — iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida vujudga kelayotgan shart-sharoitlar va bozor munosabatlari talablarini xisobga olgan xolda yangi sanoat siyosatini ishlab chiqish zarur. Mazkur siyosat birinchidan ulkan texnika va ishlab chiqarish salohiyatiga tayanishi, ikkinchidan xorijiy investitsiyalarning jalb etishning yirik imkoniyatlaridan foydalanishga shart sharoit yaratishi, uchinchidan, ilmtalab va mehnat sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlar rivojlanishiga ustivorlik berishi, turtinchidan, har bir mintaqa o'z ishlab chiqarish salohiyatlarini namoyon qilishi uchun keng imkoniyatlar barpo etishi, beshinchidan ekologik talablarni xisobga olgan xolda rivojlangan ishlab chiqarishni barpo etishga (chiqindisiz ishlab chiqarishni tashkil etish, chiqindilarni qayta ishlash asosida) qaratilishi maqsadga muvofik.

Sanoat ishlab chiqarishida tarkibiy uzgarishlarni amalga oshirish respublika va har bir viloyat sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishga, moliyaviy axvolning yaxshilanishiga ijobiy ta'sir kursatadi. Xisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki mashinasozlikning ilmtalab tarmoklarini yengil va oziq-ovqat sanoatini ustun darajada rivojlantirish yalpi ichki mahsulotning fond, energiya va suv sig'imini pasaytiradi.

Respublika va viloyatlar sanoat ishlab chiqarishida maqsadga muvofik tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda o'rta va o'zoq muddatli bashorat ko'rsatkichlarini ishlab chiqish muhim urin tutadi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida bashoratlash nafaqat istiqboldagi qarorlarni qabul qilish, balki muhim hududiy tarmoq muammolarini hal etish yo'llarini asoslash vositasi xisoblanadi.

Mintaqa sanoati rivojlanishi va undagi tarkibiy o'zgarishlarni bashoratlashga makroiqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qism sifatida qarash lozim, chunki istiqbolda mintqa sanoatini rivojlanishi makroiqtisodiy jarayonlar, jamiyat iqtisodiy salohiyati rivojlanishining xolati va istiqbollari bilan belgilanadi. O'z navbatida mintqa sanoati taraqqiyot makro iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mintqa sanoatidagi tarkibiy o'zgarishlar bashorat qilinayotganda sanoat xududiy va tarmoq tarkibining o'zgarishiga o'zaro bog'liklikda qaralishi zarur. Negaki, sanoat ishlab chiqarishining tarmoq tarkibidagi o'zgarishlar uning xududiy tarkibiga u yoki bu yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi va aksincha.

Ma'lumki, o'tish davri sharoitida iqtisodiyotning shu jumladan, sanoat tarmog'ining istiqboldagi rivojlanishi juda ko'p omillarga bog'lik bo'ladi. Bu esa sanoat ishlab chiqarishi bashorat ko'rsatkichlarining shartli bo'lishiga olib keladi. Shu munosabat bilan bashoratlashning bir necha variantlarda amalga oshirish maqsadga muvofik bo'lib, har bir variant turli xil omillar ta'sirini o'zida aks ettirishi lozim.

Sanoat tarmoq tarkibidagi o'zgarishlarning muhim yo'nalishlaridan biri kimyo va neft kimyosi sanoati bilan bog'liq. Davlat investitsiya Dasturi asosida qurilgan Shurtan gaz-kimyo majmuining ishga tushirilishi natijasida viloyatda har yili 127 tonna polietilen, 137 ming tonna suyuqlashtirilgan gaz va 103 ming tonna gaz kondensati ishlab chiqarila boshlaydi. Ushbu majmua respublikada yangi soha-polietilen ishlab chiqarish tarmog'ini rivojlanishiga yo'l ochib berish bilan birga ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. Mazkur majmuaning ishga tushirilishi

natijasida 2000 ishchi o'rni yaratiladi va bu ishchi urinlarining 175 tasi ayollar uchundir.

Kimyo sanoatning rivojlanishi ko'p jihatdan Tubegatan koni zahiralari asosida qurilishi muljallanayotgan kimyo korxonasi bilan bog'lik. Bu erda 500 ming tonna osh tuz va 500 ming tonna kaliy ug'iti ishlab chiqaruvchi zavod qurish Davlat investitsiya Dasturiga kiritilgan. Ushbu loyixaning amalga oshishi respublika qishloq xo'jaligining kaliy ug'itiga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish bilan bir qatorda uning bir qismini qushni mamlakatlarga eksport qilish imkoniyatini beradi. Xisob-kitoblarga ko'ra, har yili kaliy ug'iti eksportidan 21-26 mln. AQSh dollari miqdorida valyuta tushumi olish mumkin.

Mamlakatimiz energetika mustaqilligini mustahkamlash maqsadida yoqilg'i sanoati rivojlanishiga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Davlat investitsiya Dasturiga muvofiq Shurtan, Muborak gazni qayta ishlash zavodlarining uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yirik mablag'lar sarflanmoqda. Shurtan gaz konini jihozlash maqsadida 1999-2005 yillar davomida 40220 mln.sum mablag' ajratildi. Neft va gaz sanoatini rivojlantirish dasturi asosida 2007-2008 yillarda Shurtan gaz konlar majmuasiga 8430 mln.sumlik mablag' ajratish muljallangan. Ushbu tadbirlarning amalga oshirilish natijasida Shurtangaz kondan bir yilda 24 mlrd kub metr gaz qazib olinadi. 2471 nafar kishi, shu jumladan. 502 nafar ayol ish bilan ta'minlanadi.

Xisob-kitoblarga kura, viloyatda neft, gaz kondensati va gaz qazib olish 2005 yilga kelib muvofiq ravishda 6,0 mln.tonna, 5,4 mln.tonna va 60 mlrd.kub m.ga, 2010 yilga esa 6.4 — 6,6 mln.tonna, 6,3 — 5 mln. tonna va 63 — 64 mlrd. kub. m.ga etadi.

Viloyat tarmoq tarkibiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri ilmtalab va yuqori texnologiyani ishlab chiqarish turlarini rivojlantirishdan iborat bo'lishi lozim.

Sanoatning mashinasozlik, priborsozlik, elektronika, elektrotexnika kabi tarmoqlarini ustun darajada rivojlantirmasdan to'rib sanoat taraqqiyotida yuqori natijalarga erishib bulmaydi. Viloyat sanoatining respublika sanoati siyosatidagi urni sanoat salohiyatining ustuvor jihatlari ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish

darajasini xisobga olgan xolda shuningdek, bugungi kunda shakllangan ishlab chiqarish turlari va yo'nalishlaridan kelib chiqib istiqbolda Qashqadaryoda mashinasozlikning qishloq xo'jaligi mashinalarini ta'mirlash, qishloq xo'jalik mashinalari uchun detallar ishlab chiqarish, kimyo, neft va neft kimyosi mashinasozligi rivojlanadi. Shu bilan bir qatorda maishiy buyumlar, elektronika mahsulotlari ishlab chiqarishga asoslangan ko'shma korxonalar barpo etish maqsadga muvofiq. Ushbu chora tadbirlarni amalga oshirish natijasida viloyatda mashinasozlik tarmog'ining o'sish sur'atlari 2000-2010 yillarda 169 foizni, 2000-2015 yillarda esa 272 foizni tashkil qiladi.

Viloyat iqtisodiyotida chuqur iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishi, aholi sonining yuqori sur'atlarda usishi natijasida uy-joyga bo'lgan talabning ko'payishi, ijtimoiy va ishlab chiqarish tuzilmasi ob'ektlarining ko'plab ko'rilishi va boshqa chora tadbirlar, qo'rilish materiallari sanoatining yuqori sur'atlarda rivojlanishini talab qiladi.

Qo'rilish materiallari sanoatining rivojlanishi istiqbolda mavjud xom ashyo resurslaridan oqilona foydalanishga asoslanadi.

Xususan, yaqin besh yilda Pachkamar konidan yiliga 10 ming tonna keramzit xom ashyosi qazib olishni yo'lga qo'yish ko'zda tutilmokda. Bu esa Qarshi keramzit mahsulotlari ishlab chiqarish zavodining uzluksiz ishlashiga imkoniyat yaratadi. Qoratut konida sement zavodi qo'riladi va xar yili 1000 tonna sement ishlab chiqariladi.

Shuningdek, viloyatda junni qayta ishlash asosida matolar ishlab chiqarish, kunchilik, poyafzal, ipakni qayta ishlash, gilam ishlab chiqarish rivojlantirildi. Buning natijasida maxalliy xom ashyodan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortadi. Ushbu chora-tadbirlar yengil sanoat mahsulotlar ishlab chiqarishning 2015 yilda 2000 yilga nisbatan 60,4 foizga usishini ta'minlaydi. 2015 yilda esa ushbu tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish 2000 yilga nisbatan 3 barobarga oshdi. Xisob-kitoblar shuni kursatadiki, 2005 yilgacha engil sanoat tarmoqlarida 20 ming, 2010 yilgacha 30-40 ming ishchi o'rni yaratildi.

Oziq-ovqat mustaqilligini taminlash tarkibiy o'zgarishlar oldidagi muhim strategik vazifalardan biri xisoblanadi. Meva-sabzavotlarni qayta ishlash, un-yorma sanoatida xorijiy firmalar ishtirokidagi korxonalarni barpo etish orqali ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va yangilash, oziq-ovqat xom ashyosini qayta ishlash xajmini kupaytirish, o'z ishlab chiqarishi xisobiga aholini oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash imkoniyatini beradi. Oziq-ovqat sanoatidagi tarkibiy o'zgarishlar raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan ilg'or texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi. Oziq-ovqat sanoatida kichik va o'rta korxonalar barpo etishni rag'batlantirish, mahalliy tadbirkorlarni qo'llab-qo'vvatlash mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishning muhim yo'nalishlaridan xisoblanadi.

Iqtisodiyotni, shu jumladan sanoat ishlab chiqarishini tarkibiy jihatdan qayta qo'rishning strategik yo'nalishlaridan kelib chiqqan xolda Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarishini xududiy jihatdan tashkil etishning acociy tamoyillari qo'yidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq:

— tumanlar sanoatrivojlanishining ijtimoiy yo'naltirilganligi. Bunda asosiy e'tibor oqilona bandlikni ta'minlash, istemol tovarlari va xizmatlarning mintaqaviy bozorlarini shakllantirishga qaratilmog'i lozim;

— tumanlar sanoatining tarmoq tarkibini tubdan qayta tuzish va unda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ustivorlik berish;

— tumanlar tabiiy-iqtisodiy sharoitlariga muvofiq ularda sanoatning oqilona ixtisoslashuvini shakllashirish va tamanlararo integratsiyani rivojlantirish;

— sanoat korxonalarini joylashtirish va amal qilishning muxim sharti sifatida infratuzilma, shu jumladan bozor infratuzilmasini rivojlantirish;

— tuman iqtisodiyotining sanoatlashuvini jadallashtirish. Ma'lumki, xar bir tumanlar ishlab chiqarish omillari bilan turli darajada ta'minlangan. Bu esa u yoki bu ishlab chiqarish turlarini tashkil etishga turli yo'nalishlarda ta'sir etadi. Bunday xolat uzoq muddatli istiqbolda viloyat sanoatining xududiy rivojlanishiga

tabaqalashgan xolda yondashishni va ustuvor yoʻnalishlarni belgilab olishni takozo etadi.

Viloyat sanoatining xududiy tarkibini shakllantirishning qoʻyidagi strategik yoʻnalishlarini ajratib koʻrsatish mumkin;

— tabiiy resurslarni oʻzlashtirish evaziga Gʻuzor, Dehqonobod, Kitob, Yakkabogʻ tumanlarida sanoat ishlab chiqarishining muayyan turlarini joylashtirishda bosqichma-bosqich ijobiy oʻzgarishlarga erishish:

— tabiiy-iqtisodiy sharoitlar yaratilgan ishlab chiqarish saloxiyati, ekologik talablarga muvofiq Karshi shahri sanoatining tarmoq tarkibini takomilashtirish, uning ilmtalab va yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini kuchaytirish;

— aholi va mexnat resurslariga boy tumanlarda (Shaxrisabz, Qarshi, Chiroqchi, Koson, Yakkabogʻ, Qamashi) mehnat sigʻimi yuqori sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga ustivorlik berish;

— viloyatning barcha tumanlarida qishloq xoʻjaligi xom ashyosini qayta ishlashga asoslangan ishlab chiqarish turlarini shakllantirish:

— sanoat taraqqiyoti past tumanlarni (Baxoriston, Dexqonobod) sanoatlashtirish.

Ushbu yoʻnalishlardan kelib chiqqan xolda Qashqadaryo viloyati shartli sifatida infratuzilma, shu jumladan bozor infratuzilmasini rivojlantirish;

— tuman iqtisodiyotining sanoatlashuvini jadallashtirish. Maʼlumki, xar bir tuman ishlab chiqarish omillari bilan turli darajada taʼminlangan. Bu esa u yoki bu ishlab chiqarish turlarini tashkil etishga turli yunalishlarda taʼsir etadi. Bunday xolat uzok muddatli istikbolda viloyat sanoatining xududiy rivojlanishiga tabakalashgan xolda yondashishni va ustuvor yoʻnalishlarni belgilab olishni takozo etadi[18].

III.BOB. QASHQADARYO VILOYATIDA SANOAT RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI VA MAVZUNI O'QITISH METODIKASI.

Mintaqalar taraqqiyotini tahlil qilish va istiqbolini belgilash hozirgi vaqtda amalda bo'lgan an'anaviy yondashuvlardan farq qilishi kerak. Hozirgi vaqtgacha mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategiyalari, asosan, mahalliy resurslar va ularning salohiyati bilan samarali bog'lanmagan hamda ulardagi nisbiy raqobatbardoshlik afzalliklari to'liq hisobga olinmagan[17].

3.1. Respublika hududiy va tarmoq dasturlari doirasida viloyat sanoatini rivojlantirish.

Iqtisodiy islohotlarni erkinlashtirish va chuqurlashtirish bosqichining xususiyatlaridan biri – bu tashkiliy-xo'jalik va boshqarish faoliyatini mintaqalashtirish hisoblanadi. Ushbu jarayonda ma'muriy-hududiy tizimlarning o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlashga yo'naltirilgan nomarkazlashtirilgan boshqaruvni kuchaytirish masalalari yangicha tus olmoqda. Uning negizida mintaqada samarali va majmuali rivojlanishga erishish uchun xalq deputatlari mahalliy kengashlari va hokimiyatlar vazifalarini aniq chegaralash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'zini o'zi moliyalash va boshqarishning iqtisodiy tamoyillariga tayanib xo'jalik yuritishni mahalliy asosda tashkil etish, mintaqalarda faoliyat yurituvchi barcha sub'ektlarga iqtisodiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini kuchaytirishga erishish lozim.

Tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan kelib chiqqan holda mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi o'rtasida keskin tafovutlarga yo'l qo'ymaslik, ular iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va tarkibiy qayta qurish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mintaqalarda takror ishlab chiqarish vazifalarini to'liq amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning zaruriy shartidir. Bu yerda birinchi o'ringa turli mintaqalarni maqsadli majmuali rivojlantirish masalasi chiqadi. Mintaqalar yaxlitligi va yagonaligini ta'minlash uchun tabiiy resurslar salohiyatidan oqilona

foydalanish, turli tarmoqlarning mutanosibligini ta'minlash, ichki va hududlararo ishlab chiqarish va texnologik aloqalarni barqarorlashtirish lozim. Majmuaviy rivojlanish tushunchasi mintaqadagi ishlab chiqarish kuchlarini barqaror, muvozanatli, mutanosib va mos ravishda rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ko'pincha majmualiy rivojlantirish deganda mintaqada turli iqtisodiy tarmoqlarni mutanosib rivojlantirish e'tiborga olinadi. Biroq bu tushuncha nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishni, balki iqtisodiy rivojlanish bilan bir vaqtda ijtimoiy infratuzilmani barpo etishni, demografik jarayonlarni tartibga solishni, ishchi kuchidan oqilona foydalanishni, ekologik muammolarning yechimini topish kabi masalalarni muvozanatli va mos ravishda olib borilishini nazarda tutadi. Mintaqani majmualiy rivojlantirish – bu keng ma'noda ijtimoiy-iqtisodiy takror ishlab chiqarish jarayonlarini o'zaro bog'lashdir. Bunday yondashuv asosida har bir mintaq uchun alohida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilishi zarur.

Strategiyaning mohiyati – mintaqalarni rivojlantirishning maqsadli va aniq muammolari tizimini aniqlash, qo'yilgan maqsadga erishish uchun bir-biriga o'zaro bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish, turli korxonalar faoliyatini muvofiqlashtirishdan iborat.

Mintaqani majmualiy rivojlantirish strategiyasi asosida aholi turmush farovonligini oshirish hamda iqtisodiyotning raqobatbar-doshligini o'stirish muammosi turadi. Bu vazifani mintaq taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi omillar yordamida amalga oshirish mumkin:

- iqtisodiy omillar: iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi mintaqadagi mavjud tabiiy resurslarga, ishlab chiqarish infratuzilmasiga va iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishiga bog'liqdir;

- ekologik omillar: atrof muhitning holati, dastlab, resurslardan tabiatga zarar yetkazmay foydalanishga bog'liqdir;

Eng asosiysi, istiqbolni belgilovchi ko'rsatkichlarni amalga oshirishning real mexanizmi shakllantirilgan emas. Shuningdek, istiqbolni belgilashda mintaqaviy xo'jalik yuritishni boshqarishning tashkiliy tarkibini takomillashtirish kabi muhim

omil yetarlicha ko‘rib chiqilmaydi. Mintaqani tahlil qilish va rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishni quyidagi taklif etilayotgan beshta bosqich orqali amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (rasm).



Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiya-sini ishlab chiqishning zaruriyati, birinchidan, O‘zbekistonning mintaqaviy tizimida viloyatning umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan energetika va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi alohida ahamiyatidan va ikkinchidan, aholi turmush darajasini barqaror ko‘tarish, bandlik muammosini hal etishni o‘ta muhimligidan kelib chiqadi. Viloyat respublikaning yoqilg‘i mustaqilligini ta’minlovchi asosiy mintaqadir. Hozirda mamlakat nefti va tabiiy gazining 90 foizdan ortig‘i ushbu mintaqada ishlab chiqarilmoqda. Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ham viloyat respublikada ajralib turadi (2-jadval) [20].

Tahlillar ko‘rsatishicha, 2010 yilda viloyat sanoat mahsuloti (16,6%), investitsiyalar (17,5%), qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmi (8,5%) bo‘yicha

mamlakatimizda yuqori o‘rinlarni egallab kelmoqda. Biroq, iste’mol tovarlari (3,2%) va xizmatlar sohasining (4,5%) ulushi nisbatan kamdir.

Iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichi darajasining o‘shish sur‘ati mintaqadagi mavjud salohiyat va talabga javob bermaydi. Tashqi savdo aylanmasining umumiy salmog‘i asosan importning kamayishi natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, eksportning ulushi nisbatan o‘sgan bo‘lsa-da, lekin bu sohada ham imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayapti[21]

2-jadval

Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	Viloyatning respublikadagi ulushi (%)		2010 yilda 2000 yilga nisbatan, (marta)
	2000 yil	2010 yil	
Yalpi ichki mahsulot (Yalpi hududiy mahsulot)	6,4	7,9	1,5
Sanoat mahsulotlari	8,3	16,6	1,9
Iste’mol tovarlari	5,5	3,2	2,2
Investitsiyalar	16,9	17,5	1,0
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	7,2	8,5	1,4
Xizmatlar	4,2	4,5	2,6
Tashqi savdo aylanmasi	5,6	3,4	1,2
Eksport	3,6	17,6	5,1

Viloyatning agrar sohaga ixtisoslashuvi uning mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini mintaqaviy tashkil etishdagi o‘rni va ahamiyatini belgilab beradi. Viloyat iqtisodiyotida paxtachilik, g‘allachilik hamda xom ashyoni birlamchi qayta ishlash sanoati muhim o‘rin egallaydi. Ishchi kuchining aksariyat qismi mazkur tarmoqlarda ish bilan band bo‘lib, asosiy ishlab chiqarish fondlarining katta qismi ham xuddi shu tarmoqlarga jalb etilgan. Viloyat paxta xom ashyosi va don yetishtirish bo‘yicha respublikada birinchi o‘rinni egallaydi.

Keyingi yillarda viloyatda iqtisodiy salohiyatning o‘shishiga olib kelgan tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Mamlakat iqtisodiyoti tarkibida viloyat salmog‘i oshdi. Yalpi hududiy mahsulotning (YaHM) 2000-2010 yillarda o‘rtacha o‘shish sur‘ati 7,1% ni, umuman un yildagi hajmi 1,5 martani tashkil qilib, respublika ko‘rsatkichidan 1,4 marta yuqori bo‘lgan. Biroq, erishilgan ijobiy natijalarga qaramasdan, iqtisodiyotning shakllangan tarkibi mavjud resurs

salohiyati va mehnat bozori bilan iqtisodiyotning real sektori hamda ijtimoiy sohaning rivojlanishi o‘zaro muvofiqlashmagan. Iqtisodiy rivojlanish darajasi (YaHM) bo‘yicha viloyat O‘zbekistonda 3-o‘rinda bo‘lib, nisbatan rivojlangan mintaqalar guruhiga kiradi. Jumladan, sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsuloti bo‘yicha 3-o‘rinda, eksport bo‘yicha 6-o‘rinda, ijtimoiy soha bo‘yicha esa 11-o‘rinda turadi.

Viloyat tumanlari iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha katta tabaqalanishga ega. 2010 yil natijalari bo‘yicha amalga oshirilgan iqtisodiy guruhlashga ko‘ra, rivojlangan guruhga bor-yo‘g‘i – Mirishkor va Nishon tumanlari, nisbatan rivojlangan guruhga Muborak, Koson, Yakkabog‘, Kasbi, Shahrisabz, kam rivojlangan guruhga Kitob, G‘uzor, Qarshi, Qamashi, Chiroqchi va Dehqonobod tuman kirdi. Viloyat agrosanoat majmuasida olib borilgan tarkibiy o‘zgarishlar qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining barqaror rivojlanishiga yetarli ta‘sir ko‘rsatmayapti.

Viloyatning tabiiy-resurs salohiyati, yuqori bo‘lib, neft va gaz zahiralaridan tashqari, uning hududida volfram, mis, qo‘rg‘oshin, rux, alyuminiy xom ashyosi, surma, simob, oltin konlari hamda kaliy tuzi, marmar, keramzit, bentonit kabi foydali qazilmalar mavjudligi aniqlangan. Ayniqsa, Dehqonobod, Mirishkor, Kitob va G‘uzor tumanlarida mineral xom ashyo resurslari salohiyati yuqoridir. Shuning uchun ham kelajakda viloyat va uning tumanlarining tabiiy-resurs salohiyatidan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va samarali ixtisoslashuvni keng yo‘lga qo‘ygan holda asosiy e‘tibor raqobat ustuvorligiga qaratilmog‘i tadqiqotda asoslab berilgan (3- jadval).

Qashqadaryo viloyati aholi sonining nisbatan tez sur‘atlarda ko‘payishi, uning 75,3% i qishloq joylarida yashashi bilan ajralib turadi. Aholisining 52,8 % ni mehnat resurslari tashkil qiladi. Bu yerda aholining tabiiy ko‘payish sur‘ati o‘tgan yillarga qaraganda kamayish tendensiyasiga ega bo‘lsa-da (2000 yilga nisbatan 1,4 marta kamaygan), mehnatga layoqatli aholi soni keskin oshib bormoqda (2000 yilga nisbatan 27,6% ga ko‘paygan). Bu esa mehnat bozorida yangi ish o‘rinlariga talabning taklifga nisbatan tez sur‘atlarda oshishiga olib kelmoqda. Viloyatda 2010 yilda ish bilan bandlik darajasi 2000 yilga qaraganda 17,2% ga o‘sib, shu davrdagi mehnat

resurslarining o'sish darajasi 44,4 % ni tashkil qilgan. Bu kelajakda aholini yangi ish joylari bilan ta'minlash eng ustuvor yo'nalish bo'lib qolishini ko'rsatadi. Ish bilan ta'minlanish darajasi tumanlar o'rtasida keskin farq qiladi. Mehnatga layoqatli aholining katta qismi qishloq xo'jaligida band. Qishloq xo'jaligida band aholining aksariyati mavsumiy ish bilan mashg'ul. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bo'lmagan davrda ularning faqat 6,0 foizigina ish bilan band bo'ladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida bandlar soni bevosita zarur ishchi kuchidan 30 ming kishiga ortiq. Aholi aksariyat qismining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida band bo'lishi ular daromadi pastligining asosiy sababi bo'lmoqda. Bugungi kunda viloyat iqtisodiyotida band

3-jadval

**Qashqadaryo viloyati hududlari
iqtisodiyotini ixtisoslashtirishning istiqbolli yo'nalishlari**

№	Iqtisodiyot yo'nalishlari	Hududlarning raqobat ustuvorligi hamda istiqboldagi ixtisoslashuvi
1.	To'qimachilik sanoatini rivojlantirish	Kasbi, Mirishkor, G'uzor, Shahrisabz, Yakkabog' tumanlarida paxtani chuqur qayta ishlash asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish
2.	Qishloq xo'jaligini mavjud suv va yer resurslaridan oqilona foydalangan holda rivojlantirish	Viloyatda paxta, g'alla, meva-sabzavot, go'sht, qorako'l terilar tayyorlash imkoniyatining kengligi; Kitob, Shahrisabz, Yakkabog' tumanlarida meva-sabzavot omborxonalarini tashkil qilish
3.	Tog'-kon sanoatini rivojlantirish	G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on yo'nalishidagi temir yo'lining ishga tushishi Dehqonobod tumanidagi mavjud yirik qazilma boyliklardan foydalanish imkonini beradi
4.	Xizmat ko'rsatish sohasini barqaror rivojlantirish	Aholi o'sish sur'atlarining yuqoriligi viloyatda aloqa kommunikatsiyalari va maishiy xizmatga bo'lgan ehtiyojning oshib borishiga olib keladi
5.	Mahalliy va xalqaro turizmni rivojlantirish	Qarshi shahri, Shahrisabz, Kitob, Koson, Qamashi tumanlari hududidagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar va ulardan foydalanish imkoniyatlarining mavjudligi
6.	Madaniy xordiq chiqarish, dam olish va sog'lomlashtirishni tashkil qilish	Viloyatning Kitob, Yakkabog', Shahrisabz, Dehqonobod, Muborak tumanlarida manzarali tabiat va shifobaxsh mineral suvlarning mavjudligi
7.	Tranzit salohiyatidan unumli foydalanish	Toshkent-Termiz transmilliy avtomagistralini viloyat hududidan o'tishi shimoldan Qozog'istonga, janubdan Turkmaniston orqali Eronga chiqish imkoniyatini yaratadi.

aholining atigi 7,9 foizi sanoatda bandligini hisobga olsak, mintaqada sanoatni rivojlantirishning keng imkoniyatlari mavjudligini ko'ramiz. Ushbu muammoni hal

qilishning maqbul yo‘llaridan biri qishloq joylarida yangi sanoat korxonalarini bunyod etish evaziga bandlikning asosiy salmog‘ini qishloq xo‘jaligidan sanoatga o‘tkazishdir.

Tahlillarining natijalaridan viloyatning istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tendensiyalarini belgilashda, ularni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishda foydalanildi (4-jadval).

4-jadval

**Qashqadaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy holatining
tahlili**

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
-tabiiy va mineral xom ashyo resurslariga boyligi; -yer, mehnat resurslari, iqtisodiy salohiyatning kattaligi; -respublikada yoqilg‘i, paxta va g‘alla mahsulotlari ishlab chiqarishdagi muhim strategik o‘rni; -viloyatning geografik qulay joylashganligi; -tarixiy obidalar, ziyoratgohlar va shifobaxsh maskanlarning mavjudligi.	-ijtimoiy va bozor infratuzilmalari rivojlanishi darajasining pastligi; -bank-moliya tizimining zaif rivojlanganligi; -investitsiya muhitining yaxshi shakllanmaganligi; -kichik biznes va tadbirkorlikni bir yoqlama rivojlanayotganligi.
Imkoniyatlar	Xavflar
-agroiklim sharoitlarining qulayligi; -viloyatning “Buyuk ipak yo‘li”da joylashganligi va transmilliy avtomagistralning viloyat hududidan o‘tganligi; -eksport salohiyatining yuqoriligi; -sanoatni rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligi; -kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bazasining mavjudligi;	-ob-havoning keskin o‘zgarib turishi, tabiiy ofatlar sodir bo‘lish xavfining mavjudligi; -suv resurslarining cheklanganligi, mahalliy sug‘orish suv manbalarining yo‘qligi; -aholi daromadlarining pastligi; -ishsizlik darajasining yuqoriligi.

Amalga oshirilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, viloyatning kuchli tomonlari va imkoniyatlari uning zaif tomonlari va xavflaridan ko‘ra ko‘proq bo‘lib, bu uning salohiyati yuqoriligini ko‘rsatadi. Vaziyatning bunday real tahlili viloyatning qaysi kuchli jihatlari va imkoniyatlari yordamida uning zaif tomonlarini bartaraf etib, tavakkalchiliklarni oldini olish yo‘llarini aniqlashga yordam beradi. Bu usulni qo‘llash yordamida tuzilgan strategiya viloyatning eng muhim xususiyatlarini qamrab olgan holda, haqqoniy holatni aks ettiradi.

Tadqiqotda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasining quyidagi asosiy yo‘nalishlari asoslab berilgan: mintaqa iqtisodiyoti tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ustuvor rivojlantirish; qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish va qayta ishlashni kuchaytirish orqali sohani barqaror rivojlantirish; agrar, yonilg‘i-energetika, xizmat ko‘rsatish sohalarining eksport salohiyatini kengaytirish; investitsiya muhitini yaxshilash orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kuchaytirish; mintaqada bozor va ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish va yuksaltirish; ijtimoiy sohalarini ustuvor rivojlantirish; aholini ish bilan bandligini ta‘minlash.

Viloyatni rivojlantirish strategiyasida aholining oqilona va samarali bandligini ta‘minlash asosiy vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanib, uni hal qilishda quyidagilarga e‘tibor qaratish lozim:

- mahalliy xom ashyodan iste‘mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hisobiga qishloq tumanlarida ko‘p mehnat talab qiladigan yangi ish o‘rinlarini yaratish;

- xususiy mehnat faoliyati, kasanachilikni yo‘lga qo‘yish orqali mehnatning o‘zgaruvchan tartibini joriy etish;

- iqtisodiyot tarmoqlari uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni takomillashtirish.

Ijtimoiy infratuzilmaning asosiy ob‘ektlarini asosan qishloq joylarda rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Birinchi o‘rinda tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish, nisbatan iqtisodiy qoloq tumanlarning rivojlanishini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash kerak[15].

3.2. Qashqadaryo iqtisodiy rayonini o'qitish metodikasi.

*Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa,
berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar.*

I.A.Karimov.

Hozirgi kunda “Ta’lim to’g’risidagi qonun”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning oldiga qo’yilgan ustivor vazifalar yosh avlodga chuqur bilim va tarbiya berish asosida barkamol insonlarni voyaga yetkazish hisoblanadi.

Ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan yangilanishlar bevosita ta'lim tizimida ham o'z ahamiyatini aks ettiradi. Ana shunday o'zgarishlar o'quvchilarga yangi bilim. ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan yoshlarning o'ziga, o'zgalarga jamiyatga, tabiatga nisbatan e'tiborli bo'lishini taqozo qiladi. Shu o'rinda maktabda o'qituvchi asosiy mas'ul shaxs sifatida ta'lim tizimining ratsional yo'llarini ishlab chiqadi, loyihalashtiradi. Ma'lumotlarni o'quvchiga tez va aniq tushunarli tilda yetkazib beradi.

Geografiya dars mashg'ulotlarida interfaol usullardan foydalanish o'quv jarayonini samaradorligini oshirish bilan birgalikda o'quvchilar shaxsiyatini shakllantirishda ham muxim o'rin tutadi. Negaki, bu usullarni qo'llash o'quvchilarda geografiya bo'yicha muayyan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiribgina qolmay, ularning ma'naviy dunyosi qaror topishiga ham yordam beradi. Geografiya darslarida interfaol usullar asosida mashg'ulotlarni tashkil etish orqali o'quvchilarda ijodiy fikrlash rivojlanadi.

Interfaol usulidagi **«Kichik guruxlarda ishlash»** mashqi o'quvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruxlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan mashg'ulotlardagi ijodiy jarayon xisoblanadi. Ushbu mashq qo'llanganda ta'lim mashg'ulotlarida faol ishtirok etish, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai nazarlarini kadrlashga hamda kichik guruxlarda ishlash metodi

qo'llanilganda o'qituvchining vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki, ushbu mashqda o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarni mavzuga jalb etadi va baholay oladi.

«Kichik guruxlarda ishlash» mashqida quyidagi ketma-ketlikka amal qilinadi.

Ya'ni:

Mavzu yoritiladi;

Kichik guruxlar shakllantiriladi;

Ko'rsatma beriladi va yo'naltiriladi;

Muhokama tahlil qilinadi;

Baholanadi.

Quyida interfaol usuldagi VIII-sinf "O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" fanining "O'zbekiston sanoati" mavzusidan taxminiy namuna keltiramiz:

Mavzu: Qashqadaryo iqtisodiy geografik rayoni.

O'quvchilar sonida kelib chiqib, uchta kichik guruhga ajratiladi;

Ushbu usul birgalikdagi faoliyat bo'lib, o'quvchilarni mavzu ustida fikrlash, o'z g'oyalarini shakllantirish va ularni hamkorlar yordamida muayyan shaklda ifodalashga yo'naltiradi.

«O'ylang-juftlikda ishlang-fikr almashing» shioridan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi

1. O'qituvchi savol va topshiriq beradi: oldin o'ylab chiqish, so'ng qisqa javoblar yozish tartibida.




2. O'quvchilar juftliklarga bo'linib, bir-biri bilan fikr almashadilar va ikkala javobni mujassam etgan umumiy javobni ishlab chiqishga harakat qiladilar.



3. O'qituvchi bir necha juftliklarga o'ttiz sekund davomida sinfda o'z ishining qisqa yakunini ifodalab berishini taklif qiladi.


Namuna:



Topshiriq: Venn diagrammasida janubiy mintaqalar Qashqadaryo va Surxondaryo iqtisodiy rayonlarining iqtisodiy geografik joylanish qulayliklarini bajaring.

2-topshiriq

«Beshinchisi ortiqcha» metodi



Topshiriq: mazkur qatordagi Qashqadaryo iqtisodiy geografik rayonida mavjud sanoat tarmoqlari bo'yicha atamalardan qaysi biri shu qator uchun ortiqchaligi va nima uchunligini izohlang

3-topshiriq

«SWOT-tahlili»


Topshiriq: Qashqadaryo iqtisodiy geografik rayonining agrasanoat sohasidan foydalanishning kuchli va kuchsiz tomonlari, imkoniyatlari hamda bu jarayonga to'sqinlik qiluvchi omillarni ushbu jadvalga tushiring

S- sanoat majmualaridan foydalanishning kuchli tomonlari

W- sanoat majmualaridan foydalanishning kuchsiz tomonlari

O- sanoat majmualaridan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)

T- to'siqlar (tashqi)



Mashg'ulot natijalarini baholash: o'qituvchi- darsdan ko'zlangan o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini "Fidbeyk" orqali baholaydi va kelgusi istiqbol rejalarini tuzadi. O'quvchi- "Fidbeyk"da ishtirok etadi, dars samaradorligi va o'z faoliyatini baholaydi.

Ta'lim jarayonida har qanday interfaol usul to'g'ri va maqsadli qo'llanilganda o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Interfaol usuldagi mashqlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ta'lim mazmunini o'zlashtirish munosabatlarini kuchaytiribgina qolmasdan ikki taraflama faollashish demakdir. Zamonaviy didaktika o'qitish talablari, dars jarayonida yangicha yondashuvlar ta'lim berish texnologiyasi bilan boyib borar ekan ta'lim olishga nisbatan ochiqlik, o'z faoliyatini muntazam tahlil qila olish, shaxsiy salohiyatni rivojlantirish; turli vaziyatlarga tushganda oqilona maqsad qo'ya olish, o'quvchining ichki imkoniyatini to'g'ri yo'naltira olish, imkoniyatlar ustida ishlash orqali natijaga kelish kabi o'nlab shaxs xususiyatlarini samarali boshqarish ko'nikmalarining bilim berishning interfaol usullari orqali amalga oshiradi.

Usul-o'qituvchining individual pedagogik mahorati bo'lib, turli ta'lim metodlari orqali sayqallanadi.

Mashq-o'quvchining dars jarayonidagi amaliy ko'nikmalarini shakllantiruvchi faoliyat turi. bu faoliyat o'quvchini nazariy ma'lumotni tub mazmun mohiyatini o'zlashtirish o'zidan o'tkazish, qaror qabul qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash hissiyotlarni boshqara olish kabi madaniyatni rivojlantiradi. Interfaol mashqlar

o'qituvchi-o'quvchi o'quvchi-o'quvchi hamkorligiga asoslangan bo'ladi. Bunda o'quvchi bilim olishga o'z xohish, istak va qiziqishlari orqali jalb qilinadi, yangi bilimlarni maqsadli o'zlashtirish yo'llarini o'rganadi, amalda sinovdan o'tkazadi. O'quv materialini puxta bilib olishning oson yo'lidan boradi.

Dars № 59

Mavzu: Qashqadaryo iqtisodiy geografik rayoni

I. Darsning maqsadi:

1) **Ta'limiy maqsadi:** Qashqadaryo iqtisodiy rayoninig iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy boyliklari, xo'jaligi va uning hududiy tashkil etilishi, mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati haqida ma'lumotlarni berish orqali ilmiy dunyoqarashlarini kengaytirish, kasbga yo'llash.

2) **Tarbiyaviy maqsadi:** Qashqadaryo iqtisodiy rayoninig tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muxit muxofazasida hissalarini o'rgatish orqali milliy iftixor g'ururini shakllantirish va ekologik tarbiya berish.

3) **Rivojlantiruvchi maqsadi:** mavzu bo'yicha olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish malakalarini rivojlantirish, darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini, nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish

II. Dars turi: Noan'anaviy dars.

III. Dars uslubi: Yangi bilim berish va mustahkamlash, kichik guruhlarda ishlash, venn diagrammasi, to'g'risini top, test.

IV. Dars jixosi: Darslik, magnit doska, O'zbekiston iqtisodiy kartasi, 8-sinf atlas va kontur kartasi, plakat, marker, rangli qalamlar, guruhlar uchun topshiriqlar, baholash uchun rag'bat kartochkalari.

V. Dars bosqichlari: vaqti.

1. Tashkiliy qism.....2 daqiqa
2. Uyga vazifani so'rash.....10 daqiqa
3. Yangi mavzu bayoni.....15 daqiqa
4. Mavzuni mustahkamlash.....15 daqiqa
5. Baholash.....2 daqiqa
6. Uyga vazifa berish.....1 daqiqa

Darsning borishi:

Tashkiliy qism: Salomlashish, davomatni aniqlash, dars mavzusi bilan tanishtirish, texnik vositalarni darsga tayyorlash. O'quvchilar faoliyatini o'quv topshiriqlarini bajarishga yo'naltirish.

VI. Uyga berilgan mavzuni so'rash. Uchrashuv darsi.

O'qituvchining kirish so'zi, uyga berilgan vazifani so'rash?

(O'quvchilarning hohishiga qarab ularga oldindan topshiriqlar beriladi, o'qituvchi ularni bugungi darsga tayyorlaydi)

1-savol: Rayon hosil qiluvchi omillar?

2-savol: Qashqadaryo iqtisodiy geografik rayon chegaralari?

3-savol: Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining qanchasi dehqonchilikka to'g'ri keladi?

4-savol: Eng taraqqiy etgan sanoat tugunlari

VIII Yangi mavzu bayoni. Ma'ruza.

1-Topshiriq.

Kichik guruhlarda amalga oshiriladi.

Uchala guruhda ham venn diagrammasiga 8-sinf atlas, darslik va o'tilgan ma'ruza ma'lumotlaridan foydalanib, Janubiy mintaqalar tarkibidagi Qashqadaryo va Surxondaryo iqtisodiy rayonlarining o'xshashlik va tafovutlarini tushiring.


2-Topshiriq.

Har bir guruh Iqtisodiy rayonning iqtisodiyotini rivojlanishiga asoslanib, SWOT tahlilini amalga oshiring.

3-Topshiriq.

Quyidagi ma'ruza, atlas va darslik ma'lumotlaridan foydalanib, "Qanday" diagrammasini Iqtisodiy rayon iqtisodiyoti bilan bog'liq muammoli savollar yechimini topib, guruhdoshlaringiz fikrini inobatga olgan holda bajaring

«Qanday?» iyerarxik diagrammasi – Muammoni yechishning usul va vositalari (loyiha) bu yerda belgisi "qanday" savoliga javob berishi kerak.



Ko'pgina hollarda muammoni yechishda "nima qilish kerak"ligi to'g'risida o'ylanib qolmasligingiz kerak. Asosan muammo, uni yechishda "buni qanday qilish kerak?", "qanday" asosiy savollar yuzaga kelishidan iborat bo'ladi.

"Qanday" savollarining izchil berilishi quyidagilar imkonini beradi:

- muammoni yechish nafaqat bor imkoniyatlarni, balki ularni amalga oshirish yo'llarini ham tadqiq qilish;
- quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo'ysunadigan g'oyalar tuzilmasini aniqlaydilar.

O'quvchilar diagrammani strategik darajadagi savollar bilan ishlashni boshlaydi. Muammoni yechishning pastki darajasi birinchi galdagi harakatlarning ro'yxatiga mos keladi. Barcha g'oyalarni o'ylab o'tirmasdan, baholamasdan va taqqoslamasdan tezlikda yozish kerak; Diagramma hech qachon tugallangan bo'lmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin; Agarda chizmada savol uning "shoxlarida" bir necha bor qaytarilsa, unda u biror muhimlikni anglatadi. U muammoni yechishning asosiysi bo'lishi mumkin; Yangi g'oyalarni grafik

ko‘rinishda: daraxt yoki kaskad ko‘rinishidami, yuqoridan pastgami yoki chapdan o‘ngda qayd qilinishini o‘quvchilarning o‘zi hal etadi; Agarda o‘quvchi o‘ziga to‘g‘ri deb bilgan javobni va uning rivojlanish yo‘nalishini namoyon bo‘lishida ishonchni saqlasa, diagramma har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishni kafolatlaydi.

Guruhlar topshiriqlarni belgilangan vaqt ichida bajarib, bo‘lishgach, har bir guruhdan guruh a‘zolari tamoni kelishuviga asoslanib, bitta o‘quvchi chiqib, o‘z guruhi bilan hamkorlikda bajargan topshiriqlarini taqdimot qilishadi. Taqdimotdan so‘ng raqib guruhlar javoblariga qo‘shimcha yoki, kamchiliklarni ko‘rsatuvchi oquvchilar bo‘lsa o‘qituvchi tamonidan ularga navbat berilib, oxirida natijalarning qay darajada to‘g‘ri yo‘ki noaniqligi aytib baholanadi.

O‘zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanidan olib boriladigan dars jarayonida yuqorida keltirib o‘tilgan ta’lim texnologiyalarini qo‘llash o‘qituvchining ish tajribasiga, malaka va ko‘nikmalariga bog‘liq bo‘lib, ulardan foydalanish o‘quvchilarni mantiqiy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi hamda takomillashtiradi. Bu borada o‘qituvchilardan doimiy o‘z ustida izlanishlar olib borish talab etiladi. Shundagina ta’lim jarayoni orqali Vatan oldidagi burch va ma’suliyatni chuqur idrok etuvchi, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish mumkin

Xulosa

Kelajakda mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash yordamida shaharlar rivojlanishini ta'minlash zarur. Bu borada qurilish industriyasini ham jadal rivojlantirish maqsadga muvofiq. Yaqin kelajakda G'uzor va boshqa shaharlarida barpo qilinayotgan turli zavodlari mintaqa qurilish sanoatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Janubiy O'zbekistonda yoqilg'i, mineral xom ashyo resurslaridan tashqari paxta, meva, uzum, dorivor o'tlarni qayta ishlash, rekreatsiya va turizmni rivojlantirish imkoniyatlari ham katta. Hozircha mintaqada yetishtirilgan paxta xom ashyosiga nisbatan uni qayta ishlash respublika ko'rsatkichidan (taxminan 35 %) ancha past, meva-konserva, vino sanoatining rivojlanishi ham shaharlar iqtisodiyotini mustahkamlaydi.

Janubiy O'zbekistonning tog' mintaqasida joylashgan Qorabo'yin, Zarabog', Ammog'on kabi shahar joylari asosan rekreatsiya va farmatsevtika sanoati ob'ektlariga boy. Tog' oldi mintaqasi shaharlari asosan qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoati, tekislik mintaqasi shaharlari taraqqiyotida esa mineral tabiiy resurslar va ularni qayta ishlash, shuningdek, yirik zaxiraga ega paxta xom ashyosi asosida yengil sanoat tarmoqlarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi.


Mintaqada mavjud qazilma boyliklar, qishloq xo'jaligi xom ashyosi, agroiklimiy va mehnat resurslaridan to'liq va samarali foydalanish talab qilinadi. Bunda Buxoro-Qarshi-Qumqo'rg'on temir yo'l koridoridan samarali foydalanish hal qiluvchi ahamiyatga ega va aynan shu yo'l bo'yida kelajakda yirik urbanistik tizimlar shakllanadi. Qashqadaryo viloyatining boy yoqilg'i-energetika, Surxondaryo viloyatining qulay agroiklimiy resurslaridan samarali foydalanish, meva-konserva, to'qimachilik korxonalarini vujudga keltirish ushbu hududlarning o'zaro integratsiyalashgan holda, yagona iqtisodiy makon sifatida rivojlanishiga olib keladi.

O'zbekistonda urbanizatsiyaning innovatsiya va industriya asosida rivojlanib borishi ham ob'ektiv holat, ham zaruriyatdir. Mazkur jarayonning ob'ektivligi uning qaytarilmasligi, barcha mamlakat va mintaqalarga xosligi, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, zaruriyati esa respublikamizda yer, xususan suv resurslarining tanqisligi,

aholi bandligi va uning yashash darajasini yaxshilash, milliy va mintaqaviy iqtisodiyotni mustahkamlash bilan asoslanadi. SHu bois, shaharlar rivojlanishi, urbanizatsiya omillari va xususiyatlarini o'rganish, ushbu jarayonning salbiy jihatlarini oldini olgan holda uni boshqarish, uzoq muddatli rivojlanish kontseptsiyasini ishlab chiqish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
2. Karimov I. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Т.: О‘zbekiston, 2010.
3. Karimov I. О‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Т.: О‘zbekiston, 2011.
4. Karimov I.A. О‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li. Toshkent, “О‘zbekiston” 2007.
5. Асанов Г., Набихонов М., Сафаров И. Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий жўғрофияси. – Т.: Ўқитувчи, 1994.
6. Ата-Мирзаев О., Тухлиев Н., Узбекистан: природа, население, экономика. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2009.
7. Аҳмедов Э., Сайдаминова З. Ўзбекистон Республикаси. Қисқача маълумотнома. – Т.: Ўзбекистон, 2006.
8. Баратов П. «Ўзбекистон табиий географияси» Т. «Ўқитувчи» 1996.
9. Набиев Э., Қажумов А. Ўзбекистоннинг иқтисодий салоҳияти. – Т.: Университет, 2000.
10. Солиев А.С., Аҳмедов Э., Махамдалиев Р.Й. ва б. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. – Т.: Университет, 2003.
11. Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон кишлоқлари (Кишлоқ жойлар географияси). – Т.: «Fan va texnologiya», 2009.
12. Солиев А., Назаров М., Қурбонов Ш. Ўзбекистон хуудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. – Т.: «MUMTOZ SO‘Z», 2010.
13. Солиев А., Қаршибоева Л. Иқтисодий географиянинг назарий ва амалий масалалари-Т., 1999.
14. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (1989-2009 йй.). Монография. – Т.: «Fan va texnologiya», 2010.
15. Тўхлиев Н. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёти. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008.
16. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-11-жилдлар.- Т.: «Давлат илмий нашриёти». 2002-2005 йиллар.
17. Гофуров.А. Минтақа иқтисодиёти асослари. Ф.: Фарғона нашриёти, 2006.
18. Тошпулотова.Л.М. Минтақанинг ижтимоий-иқтисодий салоҳияти. Т.: 2004
19. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2012. Ташкент 2013г.
20. Статистический ежегодник регионов Узбекистана. Госкомстат Узбекистана за 2012год. Ташкент 2013г.
21. www.stat.uz.
22. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)



Qashqadaryo viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Ko'rsatkichlar	O'lchov	2010	2011	2012	2013
	birligi	yil	yil	yil	yil
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish amaldagi bahoda	mln.so'm	3958771,7	4307556,4	5311858,6	5814031,3
O'tgan yilga nisbatan (solishtirma bahoda)	%	97,6	105,2	99,2	104,1
Sanoatda band bo'lgan ishlovchilar soni	ming kishi	43,5	46,6	47,6	47,8
Iqtisodiyotda band bo'lgan ishlovchilarga nisbatan ulushi	%	4,5	4,5	4,6	4,6
Nodavlat sektorda sanoat mahsulot ishlab chiqarish (amaldagi narhda)	mln.so'm	3935223,1	4211233,5	5311858,6	5814031,3
Umumiy hajmga nisbatan	%	99,4	97,8	100,0	100,0
Iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi (sotuv narhlarda)	mln.so'm	342451,3	445422,9	521322,2	634789,3
O'tgan yilga nisbatan (solishtirma bahoda)	%	111,1	120,6	108,0	113,0
Nodavlat sektorida iste'mol mollari ishlab chiqarish (sotuv narhlarda)	mln.so'm	342451,3	445422,9	521322,2	521322,2
Umumiy hajmga nisbatan:	%	100,0	100,0	100,0	100,0

Манба: Қашқадарё вилояти статистика бошқармаси маълумотлар.

Qashqadaryo viloyatining umumiy ko'rsatgichlar

Viloyatning tashkil etilgan vaqti	1926 yil
Hududiy maydoni (ming kv km)	28,6
Doimiy aholi soni, (ming kishi)	2895,5
shu jumladan: shahar aholisi	1250,4
qishloq aholisi	1645,1
Markazi - Karshi shaxri	
a) Shaharlar soni	1
b) Tumanlar soni	13
shu jumladan :	
Tumanga buysunuvchi shaharlar:	11
Beshkent, G'uzor, Shahrisabz,	
Qamashi, Koson, Kitob, Muborak,	
Yangi Nishon, Chiroqchi, Yakkabog',	
Tallimarjon	
Shahar tipidagi poselkalar:	123
Mahalla fuqarolar yig'inlari	491
Qishloq fuqarolar yig'inlari	147
Qishloq aholi punklari	1046
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi	
Senati a'zolari	6
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi	
Qonunchilik palatasi deputatlari	12
Xalq deputatlari viloyat kengashi deputatlari	59
Xalq deputatlari shahar, tumanlar kengashlari deputatlari	405

Манба: Қашқадарё вилояти статистика бошқармаси маълумотлар.

Qashqadaryo viloyatning hududiy tarkibi

Туманлар	Умумий ер maydoni ming kv.km	Шаҳар лар	Туманга бўйсунувчи shahar- lar	Шаҳар типи- dagi posel- ka lar	Қишлоқ фуқаро- lar yig'in- lari	Маҳалла фуқаро- lar yig'in- lari	Қишлоқ аҳоли punktlari
G'uzor	2,6		1	5	12	28	80
Dehqonobod	4,0			3	13	22	106
Qamashi	2,6		1	5	11	36	114
Qarshi	0,9		1	15	15	36	73
Koson	1,8		1	14	9	55	66
Kitob	1,8		1	13	12	26	144
Mirishkor	3,1			3	12	24	22
Muborak	3,1		1	5	4	17	15
Nishon	2,1		2	9	8	20	30
Kasbi	0,7			9	10	28	50
Chiroqchi	2,8		1	8	20	45	127
Shahrisabz	1,7		1	19	12	51	105
Yakkabog'	1,3		1	14	9	41	105
Qarshi sh.	0,1	1		1		62	x
Viloyat	28,6	1	11	123	147	491	1046

Манба: Қашқадарё вилояти статистика бошқармаси маълумотлар.

Qashqadaryo viloyat aholisining joylashishi

Tumanlar	Tashkil topgan vaqti	Tuman markazi	Qarshi shahrigacha bo'lgan masofa (km)	Doimiy aholi soni 01.01.14 y	Shundan (ming kishi)	
					shahar	qish-loq
G'uzor	29.09.26y	G'uzor	51	181,6	42,9	138,7
Dehqonobod	26.09.26y	Qarashina	105	128,6	24,9	103,7
Qamashi	29.09.37y	Qamashi	63	237,2	56,1	181,1
Qarshi	01.10.31y	Beshkent	7	215,4	78,9	136,5
Koson	29.09.26y	Koson	30	250,1	129,3	120,8
Kitob	29.09.26y	Kitob	108	233,9	88,3	145,6
Mirishkor	25.04.03y	Yangi Mirishkor	43	106,7	39,8	66,9
Muborak	13.09.78y	Muborak	77	77,8	61,4	16,4
Nishon	06.03.75y	Yangi Nishon	20	130,4	79,1	51,3
Kasbi	15.10.70y	Muo'lon	50	173,3	66,5	106,8
Chiroqchi	22.02.26y	Chiroqchi	83	349,9	84,4	265,5
Shahrisabz	29.09.26y	Shahrisabz	104	324,3	169,0	155,3
Yakkabog'	29.09.26y	Yakkabog'	95	231,3	74,8	156,5
Qarshi shahri	13.05.26y			255	255,0	0,0
Viloyat				2895,5	1250,4	1645,1

Манба: Қашқадарё вилояти статистика бошқармаси маълумотлар.

Qashqadaryo viloyatida demografik holat

Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	2013
	yil	yil	yil	yil
Aholi soni (ming kishi)	2722,9	2777,8	2831,4	2895,5
shundan: erkaklar	1367,4	1390,8	1424,1	1455,5
ayollar	1355,5	1387,0	1407,2	1440,0
Shahar axolisi	1181,2	1203,9	1225,3	1250,4
shundan: erkaklar	592,1	602,7	615,9	628,8
ayollar	589,1	601,2	609,4	621,6
Qishloq aholisi	1541,7	1573,9	1606,0	1645,1
shundan: erkaklar	775,4	788,1	808,2	826,7
ayollar	766,3	785,8	797,8	818,4
Mehnatga layoqatli aholi	1476,3	1564,1	1613,6	1654,2
Maktabgacha yoshdagilar soni (6 yoshgacha bo'lgan)	470,5	444,4	452,8	463,0
Iqtisodiyotda band bulgan aholi soni:	971,6	1003,7	1036,6	1072,3
Millatlar bo'yicha aholi tarkibi				
O'zbeklar	2506,9	2560,6	2613,1	2672,3
tojiklar	119,5	120,4	121,5	124,2
turkmanlar	31,8	32,1	32,2	32,7
ruslar	21,5	21,4	21,3	21,7
totorlar	9,1	9,1	8,9	9,0
Boshqa millatlar	34,1	34,2	34,3	35,6
O'rtacha 1 kv.km to'g'ri keladigan aholi soni	93,4	97,1	99,0	101,2

Манба: Қашқадарё вилояти статистика бошқармаси маълумотлар.

Qashqadaryo viloyatida mehnat resurslari

	2010y	2011y	2012y	2013y
Viloyat buyicha (ming kishi)	1481,7	1568,9	1618,1	1654,2
G'uzor	88,2	94,4	96,9	99,5
Dehqonobod	61,8	66,5	68,1	70,1
Qamashi	118,3	124,7	128,5	131,0
Qarshi	113,7	122,2	125,5	128,2
Koson	120,1	126,6	130,6	134,1
Kitob	122,2	128,1	132,1	133,9
Mirishkor	58,2	61,5	63,8	64,3
Muborak	52,3	56,4	58,1	58,3
Nishon	62,7	66,8	69,4	71,2
Kasbi	85,1	90,5	93,5	96,0
Chiroqchi	159,1	167,9	174,2	182,9
Shahrisabz	167,5	174,7	178,2	180,5
Yakkabog'	117,8	123,8	128,1	130,9
Karshi shahri	154,7	164,8	171,1	173,3

Манба: Қашқадарё вилояти статистика бошқармаси маълумотлар.

Qashqadaryo viloyati hududidagi ro'yxatdan o'tgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soni.

(2014 yil 1 yanvar holatida, birlikda) (Dehqon, fermer xo'jaliklarisiz)						
	Jami	Shu jumladan				
	Korxonalar	Sanoat	Kish. xo'j	Qurilish	Savdo	Boshqalar
Viloyat bo'yicha:	24 292	2 982	3 723	2 732	8 089	6 766
shu jumladan						
Kichik biznes	20 430	2 945	3 444	2 683	8 052	3 306

Манба: Қашқадарё вилояти статистика бошқармаси маълумотлар.

Qashqadaryo viloyatida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	O'lchov	2010	2011	2012	2013
	birligi	yil	yil	yil	yil
Yalpi hududiy mahsulot amaldagi bahoda	mln.so'm	4865095,0	5879473,4	7538106,3	8828128,6
O'tgan yilga nisbatan sh.j. sohalar ulushi % da	%	103,9	106,3	104,5	105,6
Sanoat	%	40,7	39,6	39,0	37,4
Qishloq xo'jaligi	%	18,4	18,2	19,4	19,8
Qurilish	%	7,0	6,5	6,4	6,5
Transport va aloqa	%	4,5	6,9	6,9	7,5
Savdo va umumiy ovqatlanish	%	4,3	6,2	6	6,4
Boshqalar	%	17,7	12,8	12,8	14
Sof soliqlar	%	7,4	9,8	9,5	8,4
Kichik biznes ulushi	%	55,0	56,2	52,4	51,4
Mahalliy byudjet					
Daromadlari rejasi	mln.so'm	765755,1	1089370,7	1136088,8	12189046,4
xaqiqatda	mln.so'm	772711,9	1103489,6	1147926,5	1305213,7
rejaning bajarilishi	%	100,9	101,3	101,0	101,3
Xarajatlari rejasi	mln.so'm	710633,5	838404,4	1086709,0	1280241,3
xaqiqatda	mln.so'm	707950,3	843034,7	1091266,0	1286495,3
rejaning bajarilishi	%	100,0	100,6	100,4	100,5
Moliyaviy natijalar					
Debitor qarzlar (ichki qarzlarisiz)	mln.so'm	233329,6	82104,1	100307,1	10189614,2
sh. j: muddati o'tgani	mln.so'm	2119,0	1416,1	4129,5	6141
Kreditor qarzlar (ichki qarzlarisiz)	mln.so'm	730027,9	963150,5	1111618,0	7536496,9
sh. j: muddati o'tgani	mln.so'm	235,5	1196,4	1359,9	2249,5

Манба: Қашқадарё вилояти статистика бошқармаси маълумотлар.

Qashqadaryo viloyati qishloq tumanlari haqida ba'zi bir ma'lumotlar
(1.01.2011 y.)

t/r	Qishloq tumanlari	Tashkil topgan yili	Tuman markazi	Maydoni, ming kv km	Aholisi, ming kishi	Aholi zichligi, 1 kv.km/kishi
1	Dehqonobod	31.08.1971	Karashina sh-cha	4,00	120,0	30,0
2	Kasbi	25.12.1968	Mug'lon sh-cha	0,65	154,3	237,4
3	Kitob	25.12.1968	Kitob sh.	1,75	218,2	124,7
4	Koson	29.09.1926	Koson sh.	1,88	230,3	122,5
5	Mirishkor	25.04.2003	Yangi Mirishkor sh-cha	3,21	96,2	30,0
6	Muborak	13.09.1978	Muborak sh.	3,07	70,7	23,3
7	Nishon	06.03.1975	Yangi Nishon sh.	2,11	113,7	53,9
8	CHiroqchi	22.02.1964	CHiroqchi sh.	2,84	322,2	113,4
9	SHahrisabz	29.09.1926	SHahrisabz sh.	1,66	306,2	184,4
10	Yakkabog'	20.09.1926	Yakkabog' sh.	1,10	215,4	195,8
11	Qamashi	31.12.1964	Qamashi sh.	2,66	216,7	81,5
12	Qarshi	04.10.1931	Beshkent sh.	0,91	198,0	217,6
13	G'uzor	29.09.1926	G'uzor sh.	2,65	164,6	62,1
Qashqadaryo viloyati		20.01.1943	Qarshi sh.	28,6	2668,8	93,3

Jadval O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Qashqadaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hududiy jihatlari
(2010 yil, jamiga nisbatan foizda)

SHahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsuloti	XIM	Qishloq xo'jalik mahsuloti	Kapital qo'yilmalar	Pudrat ishlari	CHakana savdo	Pullik xizmat	Eksport	Import
Qarshi sh.	16,9	40,9	0,01	10,9	27,7	41,5	27,6	9,4	28,7
tumanlar:									
Dehqonobod	0,6	0,6	3,8	7,7	2,6	2,9	3,3	2,3	25,1
Kasbi	1,2	0,8	8,8	1,5	3,3	1,8	2,2	9,3	-
Kitob	0,5	4,7	7,4	1,8	5,3	7,2	12,2	0,02	0,6
Koson	2,5	12,7	10,6	2,9	7,9	7,4	7,4	11,6	0,9
Mirishkor	1,1	1,2	7,9	17,0	2,5	2,0	2,5	8,4	0,2
Muborak	43,2	1,5	4,5	28,0	6,5	2,2	7,4	3,4	11,2
Nishon	1,2	1,5	7,2	5,6	3,4	3,3	3,3	9,4	6,7
CHiroqchi	0,7	3,6	10,9	1,7	3,7	4,3	4,7	4,2	0,7
SHahrisabz	2,6	22,6	7,1	3,6	8,0	8,4	6,8	6,1	3,8
Yakkabog'	0,9	4,1	8,8	2,6	5,1	6,1	4,8	4,2	0,3
Qamashi	1,2	2,8	8,7	1,4	3,3	5,8	7,2	6,2	0,3
Qarshi	1,3	2,0	7,9	3,0	7,8	3,1	6,7	5,9	2,6
G'uzor	26,1	1,0	6,3	12,3	12,9	4,0	3,9	19,3	18,9
Viloyat bo'yicha	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibi
(01.01.2011 y.)

Qishloq tumanlari	Maydoni, ming ga	Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar, ming ga	SHu jumladan sug'oriladigan yerlar, ming ga	Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarga nisbatan, foizda:			
				ekin yerlar	ko'p yillik daraxtzorlar	bo'z yerlar	pichanzor va yaylovlar
Dehqonobod	395,7	279,8	2,2	15,9	0,2	1,3	82,6
Kasbi	73,5	51,1	46,3	87,0	3,7	-	9,3
Kitob	174,2	102,7	16,0	21,3	7,0	1,4	70,3
Koson	188,1	143,9	66,4	51,0	1,7	1,8	45,5
Mirishkor	312,5	277,3	58,5	20,0	0,5	0,7	78,8
Muborak	307,0	261,8	33,0	13,1	0,3	-	86,6
Nishon	211,1	156,3	53,9	33,2	1,3	-	65,5
CHiroqchi	283,7	240,7	25,4	51,2	1,2	3,4	44,3
SHahrisabz	166,7	102,7	22,1	24,4	4,4	0,4	70,8
Yakkabog'	134,9	100,2	29,6	39,0	5,0	2,2	53,8
Qamashi	245,7	179,0	30,3	35,1	1,1	0,4	63,3
Qarshi	91,7	65,9	43,8	67,0	4,2	1,3	27,5
G'uzor	265,2	231,9	32,8	26,6	0,4	0,3	72,7
Viloyat bo'yicha	2856,8	2195,3	461,4	31,1	1,6	1,0	66,3

Manba: "O'zbekiston Respublikasining yer fondi" – T.: O'zR yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi, 2011, - 94 bet ma'lumotlari.